

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI

Turdiev Doston

PROFESSIONAL BOKSCHILARNI MASHG‘ULOTINI
REJALASHTIRISH VA BOSHQARISH

Ta’lim yo‘nalishi: 5810200 «Sport» (sport turlari bo‘yicha)

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga qo‘yildi.

«Boks va qilichbozlik» kafedrası mudiri

Abdurasulova G. B. _____

«____» _____ 2015 yil

Ilmiy rahbar:

Umarov K.A. _____

Ilmiy maslaxatchi:

Toshkent 2015 y.

Mundarija

Kirish	3
1-bob. Professional boksdagi menejmentni zamonaviy holatini tadqiq etish.....	5
1.1. Professional boksdagi menejment aktual muammolarini tahlil etish	5
1.2. Sport musobaqalari menejment ob'ekti sifatida	20
2-bob. Tadqiqotning maqsadi, vazifasi, uslubiyati va tashkil etish.....	29
2.1. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	29
2.2. Tadqiqot uslubiyati.....	29
2.3. Tadqiqotni tashkil etish.....	31
3-bob. Professional boksdagi menejmentni rivojlantirishning tashkiliy shartlari	32
3.1. Havaskor va professional boks qiyosiy tahlili: tashkiliy jixatlari.....	32
3.2. Professional boksdagi menejmentgajismoniy tarbiya instituti talabalari munosabatlarini o'rganish natijalari	37
Xulosalar	51
Ilova.....	53
Adabiyotlar.....	55

KIRISH

Dolzarbli. Sport zamonaviy jamiyatda muhim o‘rin egallaydi va bizning hayotimizni mazmunan boyitadi. Sport bizga sog‘liq, muloqot quvonchini ulashadi hamda jismoniy va ma’naviy rivojlanishga yordam beradi, ildamlashga o‘rgatadi, asab tizimini mustaxkamlaydi va albatta ijobiy emotsiyalar olib keladi.

Sportning barcha turlari bo‘yicha ko‘p sonli musobaqalar barcha yosh toifasidagi insonlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb qilishi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu esa o‘z navbatida millat salomatligini saqlash va mustaxkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, sport mashg‘ulotlari kuchlilar g‘olib bo‘ladi-bosh ta’moyildan kelib chiqib, insonlarda sog‘lom raqobat hissini uyg‘otishga va tarbiyalashga yordam beradi.

Zamonaviy sport, xususan yakka kurash sport turlariningildam qadamlar bilan rivojlanib bormoqda. O‘zbekistonda professional boks rasman o‘tgan asrning oxirlaridan mavjud. SHu yillar ichida boks, bir qator ahamiyatli sport natijalariga erishishda katta yo‘lni bosib o‘tmoqda. Bunday erishilgan g‘alabalarda bokschilar bilan bir qatorda murabbiylarning ham ulkan mehnati bor.

Biroq professional boks o‘zining sal’biy hususiyatlariga ham ega, shuning uchun uni ko‘pgina yo‘nalishlarda vujudga kelishi va rivojlanishi deyarli noldan boshlangan. Bu professional boksni sport turi sifatida ish olib borishiga tegishli. Avvalo, O‘zbekiston professional boks Federatsiyasini tuzish hamda professional boks klublarini tashkil etishda o‘z aksini topgan tashkiliy-boshqaruv muammolari hal etildi. Bu yillarda xalqaro boks tashkiloti talablariga muvofiq mamlakat bokschilari, murabbiylari, menedjerlarini litsenziyalash tizimi ishlab chiqildi.

SHunga qaramay, ko‘pgina professional boksda menejmentga oid savollar hal etilmay qoldi. Professional boksda menejment bo‘yicha bir qator muammolarga echim topish mumkin bo‘lgan nazariy va amaliy ishlanmalar mavjud emas.

Mamlakat professional boksini vujudga kelishi va rivojlanishi, uni boshqarish, menejerlar faoliyatini tahlil qilib, bir qator qarama-qarshiliklarga duch keldik. Aynan:

- Professional boks va menejmentni rivojlantirishning amaliy zaruriyati hamda bu yo‘nalishda ilmiy-nazariy ishlanmalarning yo‘qligi;
- Professional boks menejmentlariga bo‘lgan talab va ularni tayyorlashni zamonviy tizimlari mavjud emasligi.

1-BOB. PROFESSIONAL BOKSDA MENEJMENTNING ZAMOANVIY HOLATINI TADQIQ ETISH

1.1. Professional boksda menejmentning dolzarb muammolari tahlili.

Professional boksda menejmentning eng dolzarb muammolarini o'rganib chiqishda, biz N.I.Ponomarev bayon etgan muhim metodologik holatlarga tayandik. Muallifning ta'kidlashicha, xorij sporti amaliyotida tashkiliy, boshqaruv, reklama, telekompaniyalar va shaxar munitsipaliteti bilan o'zaro aloqalar hamda klublar va ular faoliyatining ayrim jihatlarini o'rganib chiqish asosiy e'tiborni talab qilishini tan olish kerak. Bu ma'lumotlar ijobiy tajribani o'rganib, uni o'z amaliyotida qo'llanilishini talab qilinadi (N.I.Ponomarev 1996).

Professional boksni rivojlanishida asosiy bosqich, sport faoliyatining shu sohasini boshqarish bilan bog'liq. Agar havaskor boksda boshqaruv organi – havaskor bokschilar milliy assotsiatsiyasi-HBMA yagona bo'lsa, professional boksda ular bir nechta. SHuning uchun professional boksda mavjud bo'lgan boshqaruv tizimini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Professional boks, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda rivojlanganligi va ishlayotganligi uchun, demak shu sharoitlarda menejment jarayonlari haqida gaplashish lozim. Ishimizda “jismoniy tarbiya va sportda menejment” tushunchasi ostida, biz bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish sharoitlarida turli hil va turli tavsifdagi jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari faoliyatini boshqarishni tushunamiz (Menejment.....,2001).

“Boks Ensiklopediya”da (1998) ta'kidlanishicha, professional boksni tashkil etishda tarixiy va iqtisodiy sabablar kuchi ancha tartibsiz va murakkablik ko'rinadi. SHunga qaramay, u chuqur o'ylanganligi haqida gapirishga imkon beradi. Bu sport turining rivojlanishi XX asrning boshlaridanoq rivojlana boshlagan. Professional boksning iqtisodiy va sport faoliyati markazi Angliya, xususan Evropa qit'asidan AQSH ko'chdi.

Hozirgi kunda bir nechta jaxon professional boks tashkilotlari mavjud. Maxsus adabiyotda (“Boks. Ensiklopediya”, 1997; S.I.Gusev, V.N.Platonov, 2000;

N.Valuev, K.Osipov, 2007 va boshqalar), professional boksni boshqaruvchi va bokschilar orasida musobaqalarini tashkil etuvchi turli tashkilotlar haqida materiallar taqdim etilgan.

Me'yoriy-huquqiy xujjatlar, bokschilar reytingi va Xalqaro boks tashkilotlarining boshqa materiallari tahlili 1-jadvalda keltirilgan elektron resurslar yordamida o'tkazildi.

O'tgan asrning 60-yillari boshlarida butun dunyoda professional boksni o'rnatgan faqat bitta tashkilot – Butun jaxon bokschilar assotsiatsiyasi (WBA) mavjud edi. Butun jaxon bokschilar assotsiatsiyasi (World Boksing Association) – WBA - professional boksda eng keksa va ancha obro'li tashkilot hisoblanadi. Professional boks 1920 yil AQSHda milliy bokschilar assotsiatsiyasi bazasida vujudga keldi. U ettita yirik mintaqaviy tashkilotlar, shu jumladan Panosiyo bokschilar assotsiatsiyasini (RAVA) o'z ichiga olgan. Tashkilotning shtab-kvartirasi Karakasda (Venesuela) joylashgan. WBA Prezidenti – Gilberto Mendoza.

1-jadval

Xalqaro boks tashkilotlari

№	Xalqaro boks tashkilotlari nomi	Elektron resurslar
1	Butun jaxon boks assotsiatsiyasi - WBA	[sayt].URL: http://www.wbaonline.com/
2	Butun jaxon boks kengashi - WBC	[sayt]. URL: http://www.wbasboxing.com/indexEng .
3	Xalqaro boks federatsiyasi – IBF	[sayt]. URL: http://www.ibf-usba-boxing.com/
4	Butun jaxon boks tashkiloti - WBO	[sayt]. URL: http://www.wbo-int.com/
5	Butun jaxon boks federatsiyasi– WBF	[sayt]. URL: http://www.wbf.org/cotalag

Xalqaro boks federatsiyasi (International Boxing Federation) – IBF – 1983 yil tashkil etilgan. U USBA(United States Boxing Association) bazasidatug'ildi va Amerika, Evropa, Lotin Amerikasi va boshqa boks tashkilotlariga kirmagan

davlatlar professional boksini birlashtirgan. O'zining tarixi davomida IBFyo'nalishi bo'yicha jaxon chempioni tituliga ega bo'lgan 100dan ortiq bokschilar, boshqa xalqaro professional boks tashkilotlari (WBA, WBC) tomonidan ham tan olingan. Tashkilotning shab-kvartirasi Atlantik-Sitida (Nyu Jersi, AQSH) joylashgan. Prezidenti – Mariann Muxammad.

Butun jaxon boks kengashiga (WBC) 1963 yilda asos solingan. Uni tashkil etishda 11ta mamlakat (Argentina, Braziliya, Buyuk Britaniya, Meksika, AQSH va boshqalar) professional boks federatsiyalari ishtirok etdilar. Hozirgi kunda tashkilot o'zining faol faoliyatini davom ettirmoqda, natijada ayni vaqtda uning tarkibiga 156ta milliy va 9 ta qit'a federatsiyalari, shu jumladan MDX Byurosi kiradi. Tashkilotning shab-kvartirasi Mexikoda (Meksika) joylashgan bo'lib, WBC prezidenti – Xose Sulaymon.

Butun jaxon boks tashkiloti (WBO) – 1988 yil tashkil topgan. Uning faoliyati professional boksning boshqa xalqaro federatsiyalari qiziqish doirasiga tushmagan Lotin Amerikasi mamlakatlari professional bokschilariga yo'naltirilgan. Tashkilot professional boksning to'rtta kuchli mintaqaviy federatsiyalarini birlashtirgan: Interkontinental, SHimoliy Amerika, Lotin va Osiyo hamda Tinch okeani. SHab-kvartirasi San-Xuanda (Puerto-Riko) joylashgan. WBO prezidenti – Fransisko-Valkarsel.

Butun jaxon boks federatsiyasi (WBF) -1990 yilda tashkil topgan. O'z faoliyatini u birinchi navbatda, u yoki bu sabablar bilan boshqa xalqaro professional boks tashkilotlari nazariga tushmagan Lotin Amerikasi mamlakatlari professional sportchilariga mo'ljallangan.

Barcha xalqaro professional boks tashkilotlaridan eng yuqori organ bu tashkilot a'zolari Kongressi yoki S'ezdi hisoblanadi. Unda tashkilotni boshqarish raxbarlik organlariga saylanadi. YUqorida sanab o'tilgan professional boks tashkilotlari bilan boshqaruv organlari tuzilmasi ko'p jixatdan o'xshash. Farq bo'lsa ham ahamiyatsiz. Buni birinchi navbatda tashkilotlar tomonidan hal etiladigan vazifalardagi o'xshashlik bilan tushuntirish mumkin.

Butun jaxon boks tashkiloti (WBO) va Xalqaro boks federatsiyasi (IBF) Ustavi tahlili quyidagilarni ko'rsatdi.

Butun jaxon boks tashkiloti Ustavi WBOda tashkiliy va ma'muriy jarayonlarini boshqarish uchun tashkil etilgan. Xujjat tashkilot ishida barcha a'zolarining kafolatli demokratik ishtirok etishi va o'z a'zolari va xamkorlari uchun muvofiq axloq-odob parametrlarini aniqlashga yo'naltirilgan.

Har yili o'tkaziladigan s'ezdda katta ovoz bilan Prezident, to'rtta vitse-prezident, xalqaro kommissar, g'aznachilar va to'rtta qo'mita a'zolaridan iborat Ijroya qo'mita saylanadi.

Prezident o'z navbatida, direktorlarni: shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha qo'mita a'zolar, ma'murlar va tibbiyot xodimlarini tayinlaydi.

Xalqaro boks federatsiyasi (IBF) – bu a'zolari bokschilar, menejerlar, promuterlar, murabbiylar, shifokorlar, sekundantlar, xakamlar, jurnalistlar, boks ishqibozlari va hokazolar hisoblangan korporatsiyadir. Har qanday shaxs a'zolikka talabnomani to'ldirib bu talabnoma qabul qilingan taqdirda har yillik a'zolik badalini to'lash bilan korporatsiya a'zosiga aylanishi mumkin.

IBF a'zolari uchrashuvlari har yili o'tkaziladi, muddati va joyi direktorlar Kengashi tomonidan agiqlanadi. Tashkilot faoliyati 11ta a'zodan iborat direktorlar kengashi raxbarligi ostida amalga oshiriladi.

Tashkilot beshta doimiy qo'mitalarga ega: ijroya, audit va taqdirlash, tibbiy, chempionatlarni o'tkazish bo'yicha reytinglar. Direktorlar kengashi istalgan vaqtda boshqa qo'mitalarni tayinlashi va ularning majburiyatlarini belgilab berishlari mumkin.

Xalqaro boks tashkilotlari boshqaruv organlari tuzilmasini qisqacha ko'rib chiqib barobarida tabiiyki savol tug'iladi. Turli vazn toifasida eng kuchli bokschilarni aniqlash maqsadida professional boksni boshqarish bo'yicha mantiqan aynan bir hil vazifalarni hal etuvchi va bir hil funksiyani bajaruvchi shuncha ko'p tashkilotlar nimaga kerak? Qaysidir ma'noda biz, professional boksning turli qirralarini ommaviy axborot vositalarida yoritib beruvchi mashxur jurnalist K.Osipovning (2010) maqolasida javob topdik. Muallif shunday yozadi:

“Ko‘p sonli boks federatsiyalari ko‘pincha oddiy muxlislarniasossiz boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘yadilar. Xattoki, sportni yaxshi tushunadigan kishilar ham, WBO yo‘nalishi bo‘yicha jaxon chempionati WBA yo‘nalishidan tashqari aynan shunday ring qirolidan qay jixatlari bilan farqlanishini tushunmay qoladilar. Unda nima uchun “qandaydir”WBS himoyasi ostida yana oltin belbog‘ o‘ynalishi kerak? Misol uchun, futbol yoki xokkeyda bunday vaziyatni imkoni yo‘q. Eng hayratlanarlisi –yangidan-yangi tarmoqlangan tashkilotlarni ochayotgan fedeoatsiyalarning o‘zi gohida bu chalkashliklarni kuchaytirib yuboradilar. Buni oddiy mantiq bilan tushuntirish murakkab, lekin o‘sha Butun jaxon boes assotsiatsiyasi xozirgi kunda yigirmata goho o‘n to‘rtta turli hildagi titullarni tarqatmoqdalar. Bu erda har qanday chempionatlar mavjud – karib, lotin, boliviya, umum afrika, panosiyo va hokazo”. So‘ng muallif, bunday loyqa suvda nafaqat oltin baliq tutish oson, balki har qanday yaxshi loyihani cho‘ktirish oson deb xulosa chiqardi.

Ko‘p sonli boks tashkilotlari bilan vujudga kelgan holatni tushunchani, bizning nazarimizda, professional boksning asosiy zvenosi – bokschilar yakka kurashida qidirish kerak. Biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, professional boksda musobaqalar tizimi o‘ziga hos bo‘lib, havaskor boksda mavjud bo‘lgan tizimdan tubdan farq qiladi va tomoshabinlar qiziqishlariga bo‘ysinadi.

Professional boksni vujudga kelgan vaqtidan beri barcha bosqichlarida rivojlanib takomillashib borishida, bokschi-professionallar orasida musobaqalarni tashkil etishda menedjer va promutorlarning o‘rni katta. S.I.Guskov va V.N.Platonovlar ularning faoliyatini tavsiflaganlar. Mualliflarning fikricha, bokschilarni yakkama-yakka kurashlarinitashkil etishda, doim istiqbolli sportchilarni izlabtopishga harakat qiladigan menejerlar va promoutorlar (jang tashkilotchilari) katta rol o‘ynaydi. SHiddatli reklama va homiylik faoliyati, istiqboli sportchilar bilan shartnomalarni kechiktimastan tuzishga intiluvchi menejerlarning faolligi, turnirlarning ko‘pligi, boks tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari bilan doimiy reyting ro‘yxatlarini tuzish tavsifli bo‘lgan professional

boks atmosferasi, sportchilarni tez tanilishiga olib keladi (S.I.Gusev, V.N.Platonov, 2000).

1938 yildayoq K.V.Gradopolov (1938) shunday deb yozgan edi: “Bokschi-professional karerasida, tadbirkor, uning rasmiy vakili va ish yuzasidan xo‘jayin bo‘lgan menejerlar asosiy rol o‘ynaydi. Uning zimmasida musobaqa tashkilotchilari bilan shartnomalar tuzish, reklama tomonlari, yakkama-yakka kurashlar tanlovi, mashg‘ulotni moddiy ta‘minot va uni tashkil etish majburiyatlari yuklanadi. Professional boks sharoitlarida barcha bokschilar menejerlar xizmatidan foydalanishga majburlar, chunki ishni tashkil etish ularning qo‘lida bo‘ladi.

Zamonaviy adabiyotda (Boks. Ensiklopediya 1998) menejer, bokschi yoki bokschilar guruhini moliyaviy ta‘minlovchi va ularning sport faoliyati bilan mustaqil boshqaradigan mutaxassisdir. Menejer bokschi qachon, kim bilan, qanaqa sharoitda, qaysi titul uchun jang olib borishini aniqlab beradi. U shartnomalar tuzadi va raqib tomon bilan oldinda turgan musobaqa haqida muzokaralar olib boradi, jamoaning barcha a‘zolari orasida (bokschi, murabbiy, shifokor va hok.) gonorarlarni taqsimlaydi. Menejerning o‘zi ushbu professional boks tashkilotini (federatsiya, assotsiatsiya, kengash va boshqalar) moliyaviy ta‘minotchisi tadbirkorlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq.

A.Mostov (2008) fikricha, menejer – bu professional bokschiga agent yoki vakil sifatida quyidagi sharoitlarni yaratuvchi jismoniy shaxs hisoblanadi:

- boks litsenziyasini rasmiylashtirish va qo‘llab quvvatlash;
- tibbiy guvohnomalarni tashkil etish;
- ringda jaroxatlanishdan straxovka;
- tayyorgarlikni tashkil etish (mashg‘ulot zali, murabbiy, ekipirovka, sparring-sheriklar, musobaqa joyiga kelish, musobaqa joyida joylashish va ovqatlanish);
- homiyalar va sheriklar izlash;
- boks tashkilotlarida, promoutrlik kompaniyalarida, musobaqalarda, pressada, reklama kompaniyalarida, sudda va hokazolarda bokschi manfaatini taqdim etish.

Keltirilgan aniqliklarda, professional boks menejering faoliyatinegizi, bizning fikrimizcha, bu erda to‘liq aks ettirilgan. Lekin adabiyotda professional boksdagi menejerlar faoliyati tahlili bo‘yicha ma’lumotlarni topish ilojisi bo‘lmadi.

Professional boksdagi janglarni tashkil etishda yana eng muhim figura – bu promouterdir. Promouter, (“Boks. Ensiklopediya”, 1998), tashkilot tomonidan shu musobaqani sotib olish huquqiga ega raxbar tashkilot bilan janglarni o‘tkazish bo‘yicha barcha moliyaviy va tashkiliy savollarni hal etish uchun tayinlangan professional boks tashkiloti vakili. Promouter boks musobaqalari va boshqa sport va ko‘nil ochar tomoshalarini o‘tkazishga ixtisoslashgan firma boshlig‘i bo‘lishi mumkin.

A. Mostov (2008) fikricha, promouter – bu professional boks musobaqalariga tayyorgarlik va o‘tkazishni tashkil etish uchun javob beruvchi ma’sul jismoniy shaxsdir. Promouterning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- bokschilar, musobaqa joyi, xakamlar, shifokorlarni tanlash;
- professional boksdagi qonun talablari, musobaqa qoidalari va boshqa mavjud boshqaruvchi reglamentlarni bajarish;
- musobaqalarni o‘tkazish bilan bog‘liq shartnoma, kelishuvlarni rasmiylashtirish va shu bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlarni bajarish.

Bokschilar yakkama-yakka janglarini tashkil etishda promouter kompaniyalarining o‘rni katta. Ularning faoliyatlari bo‘yicha aniq tassavvurga ega bo‘lish uchun ayrimlarinikeltiramiz (Promouterlik kompaniyasi: [sayt]. URL: <http://www.Ambox.su/promouterskie-boks-kompanii/>).

Don King promouterlik kompaniyasi. Mamlakatlar: AQSH. SHaxar: Las-Vegas.

Kompaniya to‘g‘risida: Don King – bu butun dunyoga mashxur boks promouteri, u Muxammad Ali, Jo Freyzer, Jorj Forman, Larri “Eaton Aain” Xolms, Mayk Tayson, Rey Leonerd, Robert Dyuran, Xulio Sezar CHaves, Evander Xolifild, Roy Jons, Feliks Trinidad, Bernard Xopkins, Rikardo Lopes, Salvador Sanches, Vilfred Gomes hamda Linnoks Lyuis janglarini tashkil etgan va butun dunyoga mashxur qilgan.

Don King – bu 700dan ortiq jaxon chempionatlarini o‘tkazgan promouterdir. 100ta bokschilar jangidan keyin bu kompaniya 1 million AQSH dollaridan foyda ko‘rdi. Don King hozirgi kunda ham turli janglarni o‘tkazadi, lekin u o‘tkazgan eng yirik janglar:

Tayson Xolifildga qarshi – noyabr 1996 yil.

Xolifild Taysonga qarshi – iyul 1997 yil

Bruno Taysonga qarshi – mart 1996 yil.

TOPRANK promouterlik kompaniyasi. Mamlakat AQSH. SHahar Las-Vegas.

Kompaniya haqida: Bob Arum boks tarixida eng muvoffaqiyatli kompaniyalardan biri bo‘lgan Las-Vegosdagi TOP RANK kompaniyasining asoschisi va vakili hisoblanadi. Bu kompaniyaning birinchi bokschisi Muxammad Ali bo‘lib, 1966 yil uning birinchi jangi bo‘lgan. Bu kompaniyada butun dunyoga taniqli va shon-sharaf pag‘onasiga ko‘tarilgan bokschilar juda ko‘p, misol uchun: Muxammad Ali, Jo Freyzer, SHugar Rey leonard, Larri Xelms, Marvin Xogler, Oskar De La Xoyya, kichik Floyd Meyvezer va boshqalar. Bundan tashqari TOP RANKkompaniyasi bilan ishlaydigan boshqa bokschilar ham bor, ya’ni Roberto Dyuran, Aleksis Arguello, Karlos Monzon, Rey Manchini, Jeyms Toni va Erik Moralis. Ma’lumki, Matvey Korobov ham shu kompaniya bilan shartnoma tuzgan. Ayni vaqtda **TOP RANK** kompaniyasi 75 ta bokschiga, shu jumladan chempionlar ham: Menni Pakyao.

FIGHTER promouterlik kompaniyasi. Mamlakat: Rossiya. SHahar: Moskva.

Kompaniya haqida: FIGHTER professional boks promouter guruhi hozirgi kunda asosiy faorliyat turi ommaviy-ko‘ngil ochar dasturlar hisobiga boksni rivojlantirish va ommaviylashtirish, qiziqish darajasini oshirish bo‘lgan yagona tashkilot hisoblanadi. Oxirgilarni tadbqiq etish – promouterlik guruhining muhim vazifasi, ya’ni ko‘ngil ochish sanoatini, faol dam olishni hamma joydarivojlantirish. Bu sohada aholining badavlat qismidan talab va takliflar kun sayin ko‘proq oshib bormoqda, ammo PGPB “FIGHTER” ning har bir loyihasi

ommaviy va yakka tartibdagi auditoriyaga mo'ljallangan turli moliyaviy variantlar bilan aniq istemolchiga ega.

K2 East Promotions promoterlik kompaniyasi. Mamlakat: Ukraina. SHahar Kiev.

Kompaniya haqida: Professional boks shou biznes turi sifatida – butun dunyoda eng ko'p reytingga ega va tomoshabop tadbirlardan biri. Bunga AQSHda HBO va Showtime kabi eng yirik tele sanoatlarining “Don King Produktion”, “Top Rank”, “Golden Boy Promotion”, “K2 Promotion”; Germaniyadagi – RTL bilan “K2 Promotion”, ARD bilan “Sauerland Event”? ZLF bilan “Univerum Box-Promotion” kabi dunyoning etakchi promoterlarilari bilan hamkorligi tasdiqlaydi.

Dunyo tajribasiga tayanib, ikkita eng kuchli “K2 Promotion” va “National Box-Promotion” kompaniyalarni birlashtirish yo'li bilan 22 noyabr 2007 yil, biz maqsadi Ukraina va MDH davlatlarida dunyo darajasidagi turnirlarni tashkil etish, iste'dodli bokschilarni izlab topish va seleksiyasi, ushbu kompaniyada MDH davlatlari orasida tashkil etiladigan boks voqealariga dunyo hamjamiyati diqqatini tortish hisoblangan aka-uka Klichkolarning yangi promoterlik kompaniyasini “**K2 East Promotion**” yaratdik.

Ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, boshqaruvni statikada tuzilma kabi va dinamikada jarayon kabi ko'rishimiz mumkin (“Trud rukovodilelya” 1977). YUqorida ko'rsatilganidek, professional boksdagi tuzilma boshqaruv organlarining turli hil tizimlari bilan ko'rsatilgan: xalqaro federatsiyalar, kengashlar, professional boks asotsiatsiyalari, milliy, mintaqalararo va mintaqaviy federatsiyalar, professional klublar, menejerlar, promoterlik kompaniyalari. Ularning barchasi, o'zaro o'ziga hos tashkiliy-boshqaruv munosabatlariga ega bo'lib bizning nazarimizda mohiyati ularda o'zaro to'g'ridan-to'g'ri bo'ysinish yo'q.

Professional boksdagi boshqaruv jarayonlari yuqorida aytib o'tilmagan boshqaruv organlari va menejerlarni xizmat tizim darvyonlarini nazarda tutadi. Bu jarayon odatda mazmuni, tashkil etilishi, texnologiya nuqtaiy nazaridan tavsiflanadi. Ko'rib chiqilayotgan sohada boshqaruv jarayoni mazmuni boks janglarini tayyorlash va o'tkazishga yo'naltirilgan shu jarayon mohiyati, uning

vazifalari, vositalari, uslubiyatlari va boshqalarga ko‘ra aniqlanadi. Aynan shunda professional boksni o‘ziga hos xususiyatlarini aks ettiruvchi boshqaruv jarayoning spetsifikasi namoyon bo‘ladi.

Ko‘pchilik mualliflarning (V.G.Afanasev, 1977; M.Markov, 1982; M.X.Meskon, M.Albert, F.Xedouri 1992; O.T.Lebedev, A.R.Kalkovskaya 1997; I.I.Pereverzin 2004; S.S.Filippov 2004; V.I.Joldak, S.G.Seyranov 2006; V.V.Galkin 2006 va boshqalar) fikriga ko‘ra, har qanday boshqaruvning muhim tarkibiy qismi uning vazifalari hisoblanadi.

V.G.Afanasev (1977) fikricha, boshqaruv faoliyati, boshqaruv vazifalarini amalga oshirishda boshqaruv jarayonida inson tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar, operatsiyalarda o‘z ro‘yobini topgan boshqaruv mehnatida bevosita o‘z aksini topadi.

Ijtimoiy boshqaruv sohasida mashhur mutaxassis M.Markov (1982), boshqaruv vazifalari, ijtimoiy tizimlarda o‘z-o‘zini boshqarish va boshqaruv vazifalariga asoslangan faoliyatning hilma-hil turlari yig‘indisi kabi aniqlanishi mumkin deb hisoblaydi. Aynan faoliyatning shu turlari orqali boshqaruv sub’ekti yashirish imkoniyatlarni va tashkiliy tuzilma maqsadini amalga oshiradi va ijtimoiy rivojlanish bilan o‘rtaga tashlangan vazifalarni hal etadi.

O.T.Lebedev, A.R.Kalkovskaya (1997) nuqtaiy nazariga ko‘ra, boshqaruv vazifasi ostida boshqaruv mehnatini bo‘linish jarayonida ajralib qolgan maxsuslashtirilgan boshqaruv faoliyati turlari tushuniladi. Mualliflar quyidagi boshqaruv vazifalarini ajratadilar: rejalashtirish, bashoratlash, boshqarish, tashkil etish, nazorat, hisob-kitob, tahlil.

Hammaga ma’lum “Основы менеджмента” darsligida M.X.Meskon, M.Albert, F.Xedourilar (1992) boshqaru vazifalariga rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazorat kirishi bayon etilgan.

I.I.Pereverzin (2004) fikricha, sport menejerlari boshqaruv faoliyati sub’ekti bo‘lib bir qator turli hil vazifalarni bajaradi. Muallif o‘z e’tiborini eng asosiy uchta vazifaga qaratdi:

- menejer tashkilotning faoliyat yoʻnalishini aniqlaganligi bilan ifodalanuvchi qaror qabul qilish vazifasi, resurslarni taqsimlash savollarini hal etadi, joriy oʻzgartirishlarni amalga oshiradi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish huquqi faqat menejerga berilgan boʻlib, u qabul qilingan qarorlar oqibatiga javobgarlikni oladi;

- axborotlilik vazifasi shundan iboratki, menejer oʻzi ishlaydigan jismoniy tarbiya-sport tashkilotining ichki va tashqi muhiti toʻgʻrisida axbortlarni toʻplaydi, shu axbortlarni dalillar va meʼyoriy koʻrsatmalar shaklida tarqatadi va siyosiy xodimlarga tashkilotning yaqin va kelajak maqsadlarini tushuntiradi;

- menejer jismoniy tarbiya-sport tashkilot aʼzolarini maqsadga erishish yoʻlida birlashtirgan, tashkilotning tashqi va ichki munosabatlarini shakllantiruvchi jismoniy tarbiya-sport tashkilotning raxbari sifatida chiqadi va albatta boshqa tashkilotlar bilan oʻzaro aloqalarni tashkil etuvchi vakil hamdir.

Jismoniy tarbiya sport sohasida menejment vazifalarini koʻrib chiqib, S.S.Filippov (2004) quyidagi boshqaruv vazifalarini ajratdi: maqsad, tayyorgarlik va boshqaruv qarorlarini qabul qilish, tashkil etish, motivatsiya, hisob-kitob va nazorat.

V.I.Joldak, S.G.Seyranovlarning (2006) fikricha, egallab turgan lavozimidan qatʼiy nazar barcha menejerlar uchun ayrim umumiy majburiy vazifalar mavjud:

1. menejer, korxona maqsadini aniqlaydi, ularga erishish uchun nimalar zarurligini hal qiladi, odamlar oldiga aniq vazifalarni qoʻyish yoʻli bilan ularni amalga oshirilishini taʼminlaydi;

2. menejer, tashkil etadi. U ishni darajalarga boʻladi, taqsimlaydi, zarur tashkiliy tuzilmani yaratadi, mos raxbar xodimlar tarkibini tanlaydi va hokazo;

3. “undaydigan motivlarni va aloqalarni” taʼminlaydi – u turli ishlar uchun javob beruvchi shaxslardan jamoa tuzadi, buning uchun u oʻzidagi barcha vosita, usullar, mukofotlar va yuqori lavozimlarga koʻtarish kabi uslublarni qoʻllaydi, oʻzidan va unga boʻysinuvchi xodimlar bilan doimiy aloqada butun jamoani birgalikda harakat qilishlariga erishadi;

4. tashkilot faoliyatini tahlil qiladi, me'yorlarni aniqlaydi, korxonada ishlaydigan barcha shaxslar faoliyatini baholaydi;

5. odamlarni karerasini o'sishiga yordam beradi yoki aksincha, "birdamlikni" musaxkamlaydi yoki aksincha.

Bu erda shuni ta'kidlab o'tish joiz, jismoniy tarbiya va sport sohasida ish olib borayotgan turli toifadagi mutaxassislarning kasbiy faoliyatini o'rganish bo'yicha katta tadqiqot materiallari to'plangan. Bu ishlarning natijalari, mehnatning kasbiy sohasi haqidagi va shu sohada kechayotgan turli hil jarayonlar to'g'risidagi bizning bilimlarimizni ahamiyatli darajada kengaytiradi.

YUqoridagi ishlar tahlil, birinchidan – jismoniy tarbiya va sport sohasida turli toifali mutaxassislarning kasbiy faoliyat mazmuni va tuzilmasini ochib berishga, ikkinchidan – bu mutaxassislarning kasbiy muhim va etakchi faoliyat turlarini aniqlashga imkon berdi. Uchinchidan – turli toifali mutaxassislarning kasbiy faoliyat tuzilmasi va mazmunini o'rganishda tadqiqotchilar turli metodolgik asoslarga tayandilar. To'rtinchidan –bizning tadqiqotlarimiz uchun eng muhim nima, professional boksdagi menejmentni u yoki bu jihatlarini o'rgani chiqqan tadqiqotlarda buni aniqlashni uddasidan chiqmadik.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar faoliyatini o'rganishda qo'llanilgan birinchi yondoshuv, professor N.V.Kuzmina (1980) konsepsiyasiga asoslangan. Uning mohiyati shundaki, jismoniy tarbiya-sport tashkilotlarini ham kiritish mumkin bo'lgan pedagogik tizimlarni boshqarishda N.V.Kuzmina raxbarlik faoliyat tuzilmasida uning mazmunini ochib beruvchi beshta funksional komponentni ajratdi. Bu komponentlarga; loyihachi, konstruktivlik, kommunikativlik, tashkilotchilik kiradi.

N.V.Kuzmina konsepsiyasidan foydalanib o'tkazilgan tadqiqot tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu yondoshuv mutaxassislarning kasbiy faoliyat mazmunini ochib beruvchi yaxshi natijalarini beradi.

Boshqa yondoshuv jismoniy tarbiya-sport tashkilotlarini boshqarish jarayoni funksional takibiga asoslanadi.

Bizning nazarimizda, birinchi yondoshuv pedagogik tizimlarda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari faoliyatini o'rganishda qo'llanilishi mumkin, ikkinchi si esa – boshqaruv jarayonlari doirasida.

Biz tadqiqotlarimizda, sub'ekti professional boksda menejer bo'lgan boshqaruv jarayonining funksional tarkibiga asoslangan yondoshuvga tayanami.

Professional boksda menejer bir qator vazifalarini bajaradi. YUqorida keltirilgan menejer tushinchalariga tayanib umumlashtirilgan shaklda ularga iqtisodchilar, sotsiologlar hamda boshqaruv va tashkilotchilarni kiritio' mumkin. Vazifalari hilma-hil bo'lishiga qaramay menejerlarning ish spetsifikasi quyidagicha, uning uchun birinchi navbatda boshqaruv va tashkilotchilik vazifasi muhim. Menejer o'z klkbi faoliyat sohasiga birga ish olib boradigan alohida bokschini olib keladi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, mashg'ulot va musobaqa jarayonlarini hal etadi, chunki uning eng muhim vazifasi mavjud muammolar tahlilini har tomonlama amaliy faoliyatga o'tkazishni tashkil etish hisoblanadi. SHuning uchun quyidagicha sharxlash mumkin, boshqaruv va tashkilotchilik vazifasi menejer uchun asosiy hisoblanadi. O'rganib chiqilgan adabiyot manbaalariga, hamda yuqorida keltirilgan professional boksni boshqarish tizimlari komponentlarigatayanib, bizning nazarimizda menejerning eng muhim vazifasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Maqsadga intilish;
- Rejalashtirish;
- Tashkil etish;
- Motivatsiya;
- Nazorat;
- Axborot.

Bunday tanlov, boshqa mavjud vazifalar menejer tomonidan bajarilmaydi degani emas albatta. Lekin asosiy ro'yxat keltirilgan oltita boshqaruv vazifalarida jamlangan.

Menejerning vazifalarini yana ham chuqurroq ko'rib chiqish ularni mazmunini ochib berishi mumkin. Bu erda (1982) tomonidan ta'riflangan

metodologik jixatdan muhim holatlarni keltirish maqsadga muvofiq. O‘ning yozishicha, zamonaviy boshqaruv – ularning har biri yagona maqsadga ega va aniq maqsad, natijalarini olish mumkin bo‘lgan nisbatan mustaqil qismlarga (bosqichlar, muolajalar, operatsiyalar va hokazo) ajratish mumkin va ajratilishi kerak bo‘lgan eng murakkab faoliyat turi hisoblanadi.

SHuning uchun, yuqorida bayon etilgan M.Markov holati, professional boksda biz tomondan ajratilgan menejer vazifalarini aniq harakatlargacha (muolaja yoki operatsiya) uning mazmunini qismlarga ajratish lozim.

Ushbu bo‘limni yakunlab shuni ta’kidlash mumkinki, professional boksda xalqaro boks tashkilotlariga kirgan boshqaruv organlari tizimlari etarli darajada barqarordir. Bokschi-professionallar menejerlari muvoffaqiyatli ish olib bormoqdalar.

Biroq, adabiyot manbaalari tahlili ko‘rsatganidek, sportning shu turida menejerlar faoliyatiga tegishli savollar deyarli tadqiq etilmagan. Ular bajaradigan vazifalar mazmuni, mutaxassislar tomonidan etarlicha o‘rganib chiqilmagan. Bundan tashqari, professional boksda menejerlar tayyorlash muammolari asosiy e’tiborni o‘ziga jalb qilganligiga qaramay, adabiyotlarda bu savollarga tegishli ma’lumotlar yoritilmagan.

1.2.Sport musobaqalari menejering ob'ekti sifatida.

Ushbu nuqtaiy nazardan sport musobaqalarini ko'rib chiqish uchun bir qator sabablar keltirilishi mumkin. Birinchi navbatda, I.I.Pereverzin (2002) ta'kidlaganidek, sport musobaqalari va jismoniy tarbiya-sport tadbirlari – jamiyatda jismoniy tarbiya va sport harakatlarini etakchi, eng yorqin va tomoshabop shakli hisoblanadi. Biz V.I.Joldak va S.G.Seyranovlarning (2006) musobaqa, sport faoliyatining bosh maqsadi, sportning ma'nosi, sport musobaqalarini o'tkazish shartlari, sinov tizimi hisoblanib – bu kuchli dastaklar yordamida nafaqat sport musobaqalarini samarali boshqarish, balki umuman sportni yanada rivojlantirish mumkin degan nuqtaiy nazariga to'liq qo'shilamiz. SHuning uchun sport musobaqalarini o'tkazish jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari faoliyatining asosiy yo'nalishidir.

O'tgan bo'limda ko'rib chiqilgan “Menejer” tushunchasi mazmunidankelib chiqib, uning asosiy vazifalariga to'xtalamiz, ya'ni boks janglarini tashkil etish, ta'minlash va o'tkazish hisoblanadi. SHuning uchun, menejer sport musobaqalarini barcha qirralarini aniq ifodalashi kerak: ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, sport va boshqalar.

Va nihoyat, N.N.Vizitey (2009) ta'kidlashicha, musobaqalashuv – sportning mutloq majburiy tavsifidir. Aynan shuning uchun, sport musobaqalarining ahamiyati sport harakatlarina uning egallagan o'rnini faoliyatning shu turini turli tomonlarini o'rganishga qaratgan olimlar va amaliy ishchi xodimlar aniqlaydi (V.S.Radichenko, 1978; M.M.Lobjanidze, 1980; M.YA.Saraf, V.I.Stolyarov 1984; V.S.Keller 1987; N.I.Ponomarev 1996; L.P.Matveev 1999; V.N.Zuev 1999; V.I.Joldak, V.N.Zuev 2000; S.I.Gusev, V.N.Platonov 2000; S.E.Voronin, S.S.Filippov 2000; I.I.Pereverzin 2002; A.V.Pochinkin 2004; V.I.Joldak, S.G.Seyranov 2006; A.A.Krasnikov 2003, 2007; S.S.Filippov, V.V.Ermilov 2007; N.N.Vizitey 2009 va boshqalar).

YUqorida sanab o'tilgan mualliflarning ishlari turli harakterga ega, ayrimlari nazariy-metodologik, boshqalari amaliy-mo'ljallash, uchinchilari – tashkiliy-boshqaruv va nihoyat to'rtinchilari esa – uslubiy. Biroq ularning hammasi

bizning nazarimizda, menejerning kasbiy saviyasini va dunyoqarashini kengaytiradi, boks janglariga tayyorgarlik, tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini tizimli ko'rib chiqishga imkon beradi.

Sport atamaları lug'atiga muvofiq (2001), musobaqa ma'nosi ostida, tavsifi, mashtabi, maxsus tashkil etilgan tadbirlar maqsadi, ishtirokchilarni antagonistik bo'lmagan raqobat davomida birinchilik uchun qat'iy tartiblashtirilgan sharoitlarda kurashadigan, mu'lum natijalarini erishish, biron bir sport turida o'z tayyorgarlik darajasini qiyoslash kabi turli faoliyatlar tushuniladi.

Bizning nazarimizda, ma'nosi bo'yicha yaqin, ammo ancha aniq tushuncha N.I.Ponomarev (1996) tomonidan berilgan, ya'ni sport musobaqasi deganda sport sohasida erishilgan natijalarni taqqoslash, baholash va namoyish etish, raqobatni boshqarish tushuniladi. Bundan tashqari muallif, musobaqa yuqori natijalariga erishish jarayonida ishtirokchilarni "eng yaxshi – yomon" mezonini bo'yicha taqsimlash amalga oshiriladigan uning natijalariga urg'u berish bilan o'ziga hos faoliyat turi hisoblanadi.

Ishchi tushunchasi sifatida "sport musobaqalari" biz shu tushunchaga tayanamiz.

Sport musobaqalarini o'tkazish bo'yicha menejment samaradorligi, tashkilotchilarni oldinda turgan tadbirni butun hajmini qanchalik aniq ifodalanishiga bog'liq. SHuning uchun V.N.Zuevning (1999) fikriga qo'shilmasdan iloji yo'q, uning yozishicha, sport musobaqalari tizimlarini boshqarishning umumiy asoslari quyidagi tavsiflarni o'z ichiga oladi: sport sohasida musobaqa faoliyatini tashkil etish; ushbu tizimda rejalashtirish, tashkil etish va boshqaruv jarayonlarini tartibga solish.

Sport musobaqalarini muvoffaqiyatli o'tishi ko'p jixatdan menejerning o'tkaziladigan musobaqani hususiyatlarini qanchalik darajada hisobga olishiga bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, musobaqa sportning ajralmas qismi bo'lib o'ziga hos hususiyatlarga ega. YU.F.Kuramshin (2002) o'tkazgan tadqiqotlar tahlili asosida sport musobaqalarini eng asosiy hususiyatlariga quyidagilarni kiritdi:

1. Musobaqa ishtirokchilari, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va boshqa shaxslar faoliyatini qat'iy tartibga solish;
2. Ekstremal sharoitlarda o'tadigan faoliyatni polifunksionalligi, polistrukturaligi va poliprotsessualligi;
3. Har bir musobaqada noantagonistik raqobat kurashlari, qarshi kurashlar, g'alabaga intilish, maksimal natijalariga erishishda namoyon bo'ladigan sog'lom raqobat;
4. Har bir sportchi va kurash jarayoning o'zi hamda erishilgan sport natijalari uchun yuqori ommaviy va shaxsiy ahamiyatliligi;
5. Natijalar uchun bevosita kurashlar sharoitlarida maksimal jismoniy va ruhiy zo'riqishlar (sportchi imkoniyatlaridan ustun keladigan) bilan kechadigan faoliyatning yuqori emotsional foni;
6. Har biri raqiblar ustidan ustunlikka erishishga va bir vaqtning o'zida ularga qarshilik ko'rsatishga intiladigan musobaqalashuvchi raqiblarning bevosita va vositaviy o'zaro harakatlari;
7. CHiqish natijalarini baholash imkoniyatiga ega va qiyosiy mezonlar bilan tanish boshqa sportchilar natijalari bilan ma'lum standart yordamida musobaqaning har bir ishtirokchilari natijalarini taqqoslash va sharoitlarning tengligi.

V.S.Keller (1987) sportchining musobaqa faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi sharoitlarga quyidagilarni kiritadi: musobaqalar o'tkaziladigan joy hususiyati; muxlislarning hulq-atvori; musobaqa o'tkaziladigan joy jixozlanishi; geografik holati (joylashuvi); xakamlik tavsifi; murabbiylar hulq-atvori va boshqalar.

Sport musobaqalari menejmenti nuqtaiy nazaridan eng qizig'i, bizning fikrimizcha, M.Tomich (2002) taklif qilgan sport musobaqalari tuzilmalashuviga yondoshish. Muallif sport voqeliklari ichki olami va tashqi muhiti ishtirokchilarni ko'rib chiqishni taklif qiladi. Voqealarning ichki olam ishtirokchilari – bu sportchilar, murabbiylar, jamoalar, musobaqa tashkilotchilari va nihoyat sport auditoriyasidir. Ular sport-musobaqa tavsifidagi voqeaning bevosita ishtirokchilari hisoblanadilar. Voqeaning tashqi muhit ishtirokchilari – bu homiylar, ommaviy

axborot vositalari, reklama agentlari, hamkorlar va boshqalardir. Ular sport-musobaqa voqeasida vositaviy ishtirokchilar hisoblanadi va boshqalar bilan birga voqeaga tijorat-marketing tavsifini beradi.

Yirik xalqaro sport musobaqalarga (misol uchun Olimpiyadalar, yaxshi niyat o'yinlari) tayyorgarlik va o'tkazishni tashkiliy-huquqiy jihatlariga S.E.Voronin, S.S.Filippov (2000) e'tiborlarini qaratdi. Ular tomonidan yirik xalqaro musobaqalarga tayyorgarlikni va o'tkazishni boshqarish uchun favqulotda muhim hisoblangan bu kabi tadbirlarni tashkil etish uchun zarur bo'lgan hilma-hil huquqiy ma'lumotlar turlari ko'rib chiqildi.

Deyarli barcha sport musobaqalari katta yoki kichik darajada me'yoriy-huquqiy kabi ma'lumotlar bilan bog'li. Bu shunday tushuntirish mumkin, YU.A.Fomin va E.N.Skarjinskaya (2007) yozganidek, zamonaviy sportning rivojlanishi ob'ektiv global jarayonlar, va birinchi navbatda yagona dunyo axborot tizimini yaratish bilan uzviy bog'liqdir.

SHuning uchun musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish jarayonlaridagi axborotlar ham olimlar nazaridan chetda qolmagan. Sport musobaqalarini, misol uchun XII Olimpiyada o'yinlari axborot ta'minot savollarini V.S.Rodchenko (1978, 1984) o'z monografiyasida ko'rib chiqqan. Muallif, Olimpiyada o'yinlari axborot ta'minotini tashkiliy uchta shartli davrlarga bo'lish mumkin deb hisoblaydi: birinchi davr – O'yinlarga tayyorgarlik davri; ikkinchi davr – O'yinlarni o'zini o'tkazish, unda ko'lamli va differensial ishonchli axborotlar vazifasi tezkor hal etiladi; uchinchi davr bevosita Olimpiyada o'tganidan keyingi davr. Bu davrda sport bellashuvlari, Tashkiliy qo'mitaning xo'jalik va ideologik faoliyati haqida yakuniy hisobotlar shakllanadi.

Ushbu yondoshuv V.V.Ermilova (2007) tomonidan zamonaviy sharoitlarda sport musobaqalarini boshqarishda axborotlashtirish jarayonlarini o'rganishda qo'llanildi. Muallifning ta'kidlashida sport musobaqalarini tashkil etishning har bir davri doirasida aniq maqsad va vazifalar turadi va ularga erishish bo'icha rejalar ishlab chiqiladi, bu xujjatlarni amalga oshirish uchun boshqaruv organlari tuziladi. SHuning uchun menejer, har bir davr uchun o'zining axboroti muhimligini hisobga

olishi kerak. Aynan shu axborotlarga muxtoj turli hil iste'molchilar guruhi mavjud va muallif tomonidan taklif qilingan boshqaruv sub'ektlarining axborotlashtirish tashkiliy faoliyati aniq mazmun bilan to'ldiriladi.

Musobaqalar to'g'risida ancha chuqur tushunchani, unga tegishli vazifalar tahlili bera oladi. Bu vazifalarni ochish, sport musobaqalarga tayyorgarlik va o'tkazish bo'yicha maqsadga intiluvchi menejer faoliyatiga yordam beradi. I.I.Pereverzin (2002), sport musobaqalari vazifalari ma'nosi ostida, tomoshabop jismoniy tarbiya-sport xizmatlarida shaxsning ma'lum talablarni qondirilishiga yordam beruvchi ungagina tegishli xususiyatlar tushuniladi deb hisoblaydi.

Sport musobaqalari vazifalarini tahlil etib muallif quyidagi fikrlarni o'rta tashdaydi, musobaqaning asosiy maxsulot natija – o'rin olish, g'alaba, rekord o'rnatish va shu bilan bog'liq tomoshalar hisoblanadi. SHu asoslanib sport musobaqalarining markaziy ichki sport vazifalarini musobaqalashuvchi raqiblar – sportchilar va sport jamoalari tomonidan egallangan ma'lum joy kabi xisoblash mumkin. Musobaqalarga nisbatan tashqilar soniga tomoshabop-kommunikativ, ahloqiy-tartiblashtirilgan, gedonistik va reaktiv vazifalarni kiritish mumkin.

Sport tomoshalarining asosiy vazifalariga polshalik olim K.Kvilitskiy (2010) quyidagilarni kiritadi: ko'ngil ochar, daromatik, tashviqot, iqtisod, estetik, sport-bellashuvlari.

N.A.Ponomanov (1998) yozishicha, sport odamlarni birgalikda olib boradigan faoliyatida munosabat va tartiblashtiruvchi vosita hisoblanadi. Sportning tomoshabop vazifasi bunga xizmat qiladi. Sport tomoshabop, qiziqishni oshishiga yordam beruvchi, e'tiborni o'ziga tortadi, ko'ngil ochadi. Uning manbaasi – sportchining tana tuzilishi go'zalligi va harakatlarida, sport kurashlari jadalligida, jasorat, mardonavor harakatlarda va hokazo. SHuni ham hisobga olish kerakki, sport harakatlari har bir kishi uchun oson, "sport tili" barchaga tushunarli, bu esa o'z navbatida uni insonlarning o'zaro muloqat vositasi sifatida ko'rish mumkin. Bu fikrga boshqa mualliflar ham qo'shiladilar. Masalan, M.YA.Saraf, V.I.Stolyarovlarning (1984) yozishicha, sport tomoshalarini sodir bo'layotganlarni yaqqol ko'rish bilan ajralib turadi. Hamma narsa tomoshabinlar ko'z o'ngida hal

bo‘ladi. Sport musobaqalarida natijalar oldindan ma’lum bo‘lmaydi va uning borishini ham oldindan bashorat qilish imkoni yo‘qligi uchun uni yuqori darajada tomoshabop qilishi bu haqiqat.

Mualliflarning uqtirishlaricha, sportning tomoshabopligi – uni mavjud bo‘lishi va rivojlanishi uchun muhim sharoit, chunki u sportga bo‘lgan ommaviy qiziqishni aniqlaydi. Ishtirokchilar va tomoshabinlarning chuqur emotsional hissiyotlari bilan kuzatiladigan, tomoshabin tomonidan bevosita uning rivoji idrok etilishi mumkin bo‘lgan harakatlarining o‘yin strategiyasi qonuniyatlari bo‘yicha tuzilgan, faollik bilan tomoshabinga etarli darajada tushunarli nizolarga echil topiladigan harakatlar tomoshabop hisoblanadi. Bundan tashqari, shartli o‘yin qoidalari bo‘yicha maxsus tashkil etiladigan tomoshalar ham bor.

1.1. paragrafda professional sport tushunchalarini tahlil qilishda aniqlanganidek, ko‘pgina mualliflar uning tavsifida tomoshaboplikni ajratadilar, bu esa adolatli. Rus tili lug‘atida S.I.Ojegova (1987) tomoshabop deganda “atrofdagilar nazari uchun va atrofdagilarni qiziqtiruvchi “, hamda “teatr yoki teatrlashtirilgan tomoshalar” kabi tushunchalar berilgan.

Hozirgi kunda maxsus adabiyotlarda, ommaviy axborot vositalarida yirik musobaqalar shouga aylanib ketayotganligi tez-tez uchrab turibdi. Bu avvalo, sport bellashuvchilariga emas balki musobaqani bezatishga katta etibor qaratilyotganligi sabablidir. Bu yuqorida ko‘rsatilganidek, muobaqaga keluvchi odamlarga boyram hissini ulashish zaruriyati bilan bog‘liq.

Sport bellashuvlar va shou bir-biriga qanchalik mos kelishini ko‘rib chiqamiz. Xorij so‘zlar lug‘atida (1982) shou ma’nosi ostida estrada, sirk, sport va boshqa “yulduzlar” ishtirokida o‘tkaziladigan tomoshalar tushuniladi. Bundan kelib chiqadiki, sport musobaqalari tashkilotchilari sport qismini shunga muvofiq badiiy bezaklar bilan bog‘lashga harakat qiladilar.

Mashxur figurali uchuvchi M.Butyrskaya (2004) fikriga ko‘ra, bu kabitadbirlar, ya’ni birinchi marta 2004 yil Moskva shahrida professional figurachilar hamda rossiya estrada yulduzlari ishtirokida tashkil etilgan “Led i plamen” muz shousi muhim momentlarni ajratadi: moliyaviy, tadbir

buyurtmachisini aniqlash, reklama kompaniyasini tashkil etish, axborot ta'minoti, chiptalarini sotish, shouni televideniya orqali uzatish.

Sport musobaqalarining tamoshabopligi, bozor iqtisodi sharoitlarida zamonaviy Rossiya yorqin va salmoqli, qat'iyat bilano'zini ko'rsata oladigan bu tadbirlarning yana bir qirrasini bilan uzviy bog'liq. V.A.Vasin (1999) ta'kidlashicha, sport musobaqalari tomoshabop xizmat, "tovar" bo'lib nafaqat sport, balki tijorat tavsifini oldi.

Vujudga kelgan vaziyatga B.N.SHustin (2000) quyidagicha baho beradi, ya'ni hozirgi kunda sport cho'qqilari, jaxon sport bozorida katta miqdorda foyda keltiruvchi sotish-sotib olish predmeti hisoblangan tovar maxsulotga aylanayotganligini ta'kidlaydi.

S.I.Guskov va V.N.Platonovlarning (2000) fikricha, professional sport biznesning ko'ngil ochar sohasi sifatida daromad olishga mo'ljallangan va olimpiyada sportidan umuman farqlanuvchi musobaqa tizimlariga yondoshuvni oldindan aniqlagan.

Mualliflarning uqtirishlaricha, professional sportni rivojlanishi o'n yillar davomida, bir qator prinsipial mezonlarga javob beradigan musobaqa tizimlarini istisodiy jixatdan yuqori samarali sohha bo'lib shakllanishiga olib keldi.

- Musobaqa tizimining iqtisodiy samaradorligi birinchi mezonni yuqori raqobatli kurash va g'alabani oldindan bashorat qilib bo'lmasligi;
- Professional sportda musobaqa tizimining ikkinchi mezonni jadvalning ma'romliligi;
- Musobaqa tizimi tuzilishining uchinchi mezonni bir mavsum davomida optimal startlar sonini aniqlash, mashg'ulot va musobaqa faoliyatining chambarchas bog'liqligi;
- To'rtinchi mezon, turnirlarga borish-kelish vaqti va vositalarini iqtisodi;
- Musobaqa tizimi tuzilishi asosida yotgan beshinchi mezon, o'tgan musobaqa bosqichlarida yoki turnirlarda eng yuqori reytingga ega bo'lgan jamoalar va sportchilar uchun imtiyozlarni yaratish.

Professional boksga kelsak, bu erda musobaqa tizimi sportning o'yin turlaridan farq qiladi (S.I.Guskov, V.N.Platonov 2000). Mualliflarning ta'kidlashicha, sportchining darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik musobaqalarda kam ishtirok etadi. Masalan, M.Tayson o'ta og'ir vazin toifasida WBC chempionlik tituliga erishguncha bir yilda 13-15tadan jang o'tkazgan. CHempion bo'lgandan so'ng esa u bir yilda 2-4 martagina ringga chiqqan.

Turli xalqaro boks tashkilotlarida (WBA, IBF, WBC. WBO, WBF va boshqalar) vujudga kelgan musobaqa tizimlariunchalik farqlanmaydi. S.I.Guskov va V.N.Platonovlar (2000) o'z ishlarida ko'rsatganidek, bunday musobaqalar tartibi quyidagicha tuziladi. Avval bokschilar bokschi-professional litsenziyasini qo'lga kiritish uchun kvalifikatsiya janglarini o'tkazadilar, keyin - u yoki bu yo'nalish bo'yicha jaxon klassifikatsiyasiga kirish uchun renytig va titul (qit'a chempionati tituli uchun) jangga kirishadilar. So'ng ular, biron bir yo'nalish bo'yicha chempion tituli davogarlar safiga tushish huquqi uchun bellashadilar.

Bu erda shuni ta'kidlab o'tish joizki, sport musobaqalari menejmenti uchun eng muhimi vaziyatdir. I.I.Pereverzin va F.P.Suslov (2002) uqtirganidek, tijorat va boshqa musobaqalarga nisbatan tamoshabinlar, ommaviy axborot vositalari, homiylar qiziqishlarining namoyon bo'lishi ishtirokchilarning musobaqa faoliyatida yuqori sifatni aniqlaydi. SHuning uchun tashkilotchtlar musobaqalarda ishtirok etish uchun eng kuchli va taniqli sportchilar yoki jamoalarni taklif etadilar va yuqori ko'rsatkichlarni namoyish etishga yordam beruvchi sharoit yaratadilar.

Boshqa tomondan, F.SHaaf (1998) ta'kidlaganidek, sport menejrlari uchun sport musobaqalarini tashkil etishning yana bir hususiyatini hisobga olish muhim. Muallifning fikricha, tomoshabinlar jamoa egalari yoki liga raxbarlarini emas, balki yulduzlarni va ularning do'stlari yoki o'rtoqlarini chiqishlarini tomosha qishini istaydilar. Tomoshabin uchun birinchi o'rinda sportchi turadi. Raxbar olib borayotgan ishlar samarali bo'lishi bilan ko'rinmasligi kerak. Ular bajaradigan ish – musobaqani tayyorlash, unga yo'ldosh barcha muolajalarni amalga oshirish va tomoshabin bu sport voqealaridan o'ziga qoniqish hosil qilishlari uchun baholarni belgilash. SHundagini raxbariyat ishlari adolatli bo'ladi.

2-BOB. TADQIQOTNING MAQSADI, VAZIFASI, USLUBIYATI VA TASHKIL ETISH

2.1. Tadqiqotning maqsadi va vazifasi

Tadqiqotning maqsadi – professional boksdagi menejment rivojlanishini tashkiliy-pedagogik sharoitlarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Professional boksnı menejment ob'ekti sifatida zamonaviy rivojlanish bosqichlarini ochib berish.
2. Professional boksning turli jihatlariga nisbatan talabalarini munosabatlarini aniqlash.

2.2. Tadqiqot uslubiyati tanlovi

Jismoniy tarbiya va sport sohasida, tadqiqotlarning turli hil pedagogik, psixologik va ijtimoiy uslubiyatlari to'plangan. Oldinga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun tadqiqot uslubiyatlari tanlovi, B.A.Ashmarin, 1978; YU.K.Babanskiy, 1987; N.I.Zaguzov, 1998; L.P.Matveev, 1991; N.A.Ponomarev, 1984; S.O.Filippov, E.A.Mitin, G.N.Ponomarev, 2006; E.R.YAxontov, 2006 ishlaridan amalga oshirildi.

Tadqiqot ishida ifodalangan vazifalarni hal etish uchun quyidagi ilmiy izlanish uslubiyatlari qo'llanildi:

1. Adabiyot manbaalarining nazariy tahlili va umumlashtirish va me'yoriy huquqiy xujjatlar;
2. So'rov (anketalash);
3. Kuzatuvlar;
4. Kontent-tahlil;
5. Matematik statistika uslubiyati.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha olingan dastlabki ma'lumotlar matematik statistika uslubi yordamida qayta ishlandi.

1. Adabiyot manbaalarining nazariy tahlili va umumlashtirish hamda tadqiqot mavzusi bo'yicha me'yoriy-huquqiy xujjatlar tahlili o'rganilayotgan

savolning zamonaviy holatini aniqlashga imkon berdi. Tahlil ishlari ishning birinchi vazifasiga echim topishga yo'naltirildi. Tadqiqot mavzusiga tegishli professional sport, professional boks, jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv va menejmentning nazariy asoslari, jismoniy tarbiya va sport sohasida O'zbekistondagi me'yoriy-huquqiy xujjatlar, Xalqaro professional boks tashkilotlari Ustavi va Nizomlari, o'zbek professional boks federatsiyalari muammolari bo'yicha monografiyalar, dissertatsiyalar, maqolalar o'rganib chiqildi. Olib borilgan ishlar professional boksni menejment ob'ekti sifatida zamonaviy holatini aniqlashga imkon berdi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqotning tushunchasi, ob'ektning ifodagi, predmeti, maqsadi va vazifalariga aniqlik kiritildi.

Tadqiqot davomida 57 ta adabiyot manbaalari tahlil qilindi.

2. So'rov (anketalash). Tadqiqot vazifalarini hal etish uchun so'rov – anketalash uslubi qo'llanildi. So'rov o'tkazish uchun maxsus anketalar ishlab chiqildi. Ishtirokchilar ichida O'zDJTI boks ixtisosligida tahsil olayotgan turli bosqichdagi talabalar ishtirok etdilar.

Ishtirokchilarning to'liq tavsifi keyingi bobda keltirilgan.

Anketalarni qayta ishlashda foiz nisbati qo'llanildi.

3. Kuzatuv. Ushbu uslub, professional bokschi (turnirlar har hil shaharlarda o'tkazilgan) orasida sport musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazishni baholash maqsadida qo'llanildi. Kuzatuvlar bir nechta turnirlarda o'tkazildi. Umumiy to'rta kuzatuv o'tkazildi. Olingan ma'lumotlar bokschi-professionallar xalqaro turniri menejment-loyihasi tayyorgarligida qo'llanildi.

Pedagogik kuzatuv ma'lumotlari kuzatuv bayonnomasida qayd etildi.

4. Kontent-tahlil. U jismoniy tarbiya oliy o'quv yurtlari talabalari uchun boks bo'yicha darslik mazmunini baholash uchun o'tkazildi. SHu uslub yordamida darslikda bayon etilgan professional boks savollari aks ettirilgan ma'lumotlar ulushi aniqlandi.

SHu bilan birga, Xalqaro professional boks tashkilotlari, O'zbekiston professional boks federatsiyasi Ustavi va Nizomi o'rganib chiqildi. Natijada

professional boks menejeri bajaradigan boshqaruv faoliyati va operatsiyalari aniqlandi.

5. Matematik statistika uslubi. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlashda quyidagilar hisoblab chiqildi: foiz nisbati, $\bar{X}$ – o'rtacha arifmetik qiymat; δ – o'rtacha kvadratik og'ish; m – o'rtacha arifmetik kattalikning o'rtacha xatoligi; V – variatsiya koeffitsienti (B.A.Ashmarin, 1978; «Оснoвы математическoй статистики» 1990).

2.3. Tadqiqotni tashkil etish

Tadqiqotlar nisbatan mustaqil uch bosqichda 2014 -2015 yillar davomida o'tkazildi.

Tadqiqotning dastlabki tayyorgarlik bosqichida, tadqiqot muammolarining zamonaviy ahvoli – ish mavzusi bo'yicha ilmiy adabiyotlar o'rganib chiqish, havaskor va professional boksni tartiblashtiruvchi va boshqaruvchi me'yoriy-huquqiy xujjatlar tahlili amalga oshirildi. Bokschi-professionallar bellashuvlarini tashkil etish va o'tkazish ustidan kuzatuvlar o'tkazildi. Olib borilgan ishlar natijasida bitiruv malakaviy ishning metodologik tarkibiy qismi aniqlandi: tadqiqot ob'ekti, predmeti, faraz, maqsad va vazifalari, ilmiy izlashish dasturi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida, O'zDJTI talabalarining professional boksning turli jixatlariniga nisbatan munosabatlarini o'rganish bo'yicha ular bilan anketa so'rovi o'tkazildi. Professional boks menejeri faoliyat mazmunini baholash bo'yicha mutaxassislar ekspert so'rovi o'tkazildi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichida ilmiy ma'lumotlar umumlashtirildi; ish natijalari amaliyotga tadbiiq etildi; bitiruv malakaviy ishni rasmiylashtirish amalga oshirildi.

3-BOB. PROFESSIONAL BOKSDA MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY SHAROITLARI

3.1. Havaskor va professional boksni qiyosiy tahlili: tashkiliy jixatlar

Bizning mamlakatimizda profesional boksning vujudga kelishi, ushbu ishning 1.2. bo'limida ta'kidlanganidek, 1980 yillarning oxirlariga to'g'ri keladi. Bu haqida quyidagi tavsiflar bo'yicha muxokama qilish mumkin. Birinchidan – professional boksda: O'zbekiston professional boks federatsiyasi federal va mintaqaviy boshqaruv organlari tuzilgan va ish olib bormoqda. Ikkinchidan – mamlakatda bokschilarning professional klublar to'ri shakllangan va ish olib bormoqda. Uchinchidan – bokschi professionallar yagona reyting-varag'iga kirigan, barcha vazn toifasidagi professional bokschilar orasida O'zbekiston chempionatlarini muntazam o'tkazishni. To'rtinchidan – bokschilar, murabbiylar, menejerlar, promouterlarni litsenziyalash tizimi ishlab chiqilgan. Beshinchidan – turli Xalqaro boks tashkilotlari reytingida o'zbek bokschilari etakchi pozitsiyalarni egallamoqda, bir qator buyuk vatanimiz bokschilari turli yo'nalishlar bo'yicha professionallar orasida jaxon chempionlari bo'lganlar: R.CHegaev, A.Grigoryan, A.Raximov, A.Nabiev va boshqalar.

Professional boks tizimida, tarbiyalanuvchilari yuqori natijalarga erishgan malakali murabbiylar, menejerlar, promouterlar paydo bo'ldi.

Professional boksning vujudga kelish bosqichini yakunlab, uni barcha yo'nalishlarda, shu jumladan menejmentda ham keyingi rivojlanish yo'llari haqida savollarni berish mumkin va kerak.

Professional boksda 17ta vazn toifalari mavjud. Uning tarixiy paydo bo'lish sabablarini biz yuqorida ko'rib chiqdik. Havaskor boksda bokschilarning ekipirovkasi musobaqa qoidalari va bokschilar sog'lig'ini muhofaza qilish vazifalari bilan aniqlanadi. SHuning uchun shlem, maykalar, trusilar, qo'lqoplar soni – 10 unsani nazarda tutadi.

Professional boksda ekipirovka, birinchi navbatda janglarni tamoshabopligini ta'minlashi bilan aniqlanadi, shuning uchun bokschilarda shlem, mayka mavjud emas, trus, qo'lqorlar 8dan 12 unsyagacha bo'ladi.

Havaskor va professional boks boshqaruvidagi farqlarni aks ettiruvchi tavsiflar ishning birinchi bobida ko'rib chiqilgan. Ular boshqaruv tizimida ahamiyatli darajada farqlanadi. Havaskor boksda boshqaruv tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1. Havaskor boks xalqaro federatsiyasi (HBXF); 2. RF havaskor boks federatsiyasi; 3. Havaskor boks mintaqaviy federatsiyasi; 4. Sport klublari.

Professional boksda boshqaruv tizimi avtanom bo'lib quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1. Professional boks xalqaro tashkiloti; IBF – xalqaro boks federatsiyasi; WBA – butun jaxon boks assotsiatsiyasi; WBC – butun jaxon boks kengashi; WBO – butun jaxon boks tashkiloti; IBO – xalqaro boks tashkiloti; RAVA – Panosiyo boks assotsiatsiyasi va boshqalar. 2. Qit'alararo professional boks federatsiyasi; 3. O'zbekiston professional boks federatsiyasi; 4. Mintaqaviy professional boks federatsiyalari; 5. Bokschi va uning jamoasi.

Keyingi tavsif sport sohasi uchun nisbatan yangi, lekin yil sayin katta e'tibor qozanmoqda. Boksni rivojlanishida markengini roli haqida gap boyapti. Bu rolning ahamiyati, avvalo, sport turining maqsadli ko'rsatmasi bilan aniqlanadi. Agar havaskor boks, ko'rganimizdek, sport natijalarini toroziga qo'yganimizda, professional boks – sport natijalari bilan janglar hami daromad olishda davom etmoqda. Unga erishish menejerdan ijtimoiy-iqtisodiy tavsifga ega bir qator omillarni hisobga olishni talab qiladi. Adabiyotlarda (S.I.Guskov, 1995; V.B.Myakonkov, 2004; O.N.Stepanova, 2008 va boshqalar) ta'kidlanganidek, sport marketing ob'ekti hisoblanadi: sportda homiylik va litsenziyalash, reklama faoliyatini tashkil etish, professional boksda daromad manbayi, musobaqalarni o'tkazish va moliyalashtirishni tashkil etish, professional sportda narxlanish. Aytib o'tilgan jixatlarning barchasi havaskor boks emas, balki katta darajada professional boksga tegishli. Bu esa havaskor boksda marketing faoliyati deyarli yo'qligi sabablidir.

Ommaviy axborot vositalarining havaskor va professional boks janglariga nisbatan e'tiborlari turlicha. Agar havasvor va professional boksdan turli boks turnirlarining texnik natijalari ommaviy axborot vositalarida an'anaviy yoritilishi kuzatilsa, professional boksdan – oldinda turgan bokschilar janglarini asosan, o'ta og'ir vaznlilar jangini keng yoritishga OAV faol jalb etiladi. Masalan, muashxur professional boks mutaxassisi V.Kushnir (2010) yozganidek, rus professional bokschisi Denis Lebedev jangni boy bergandan keyin: "Ha bizning bokschimiz bu jangda jaxon chempioni bo'lmadi. Lekin qo'larni siltash kerak emas hammasi hali oldinda. Men ishonaman Lebedev amerika telekanallariga ham yoqdi, bu esa professional bo'ksda juda muxim"

Har qanday sportning huquqiy asoslari menejer faoliyatini belgilovchi omil hisoblanadi. U faqat ularga tayanib, boks janglarga tayyorgarlik va o'tkazish jarayonini samarali boshqara oladi. Uzoq yillar davomida havaskor va professional boksdan vaqti-vaqti bilan tuzatishlar kiritib boriladigan o'zining huquqiy tizimi vujudga kelgan. 4-jadvalda keltirilgan xujjatlar mazmuni turlicha.

Havaskor boksdan huquq tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: Federal qonunchilik; Mintaqaviy qonunchilik; Soha qonunchiligi; Xalqaro va milliy federatsiyalar, klublar ustavi

Professional boksdan huquq tizimlari: Xalqaro qonunchilik; Federal qonunchilik; Xalqaro professional boks federatsiyalari qonunchiligi; Bokschining litsenziyasi, shartnomasi va uning jamoasi.

Bokschilar tasnifi tizimi bilan bog'liq tavsiflarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, ularda katta farq mavjud. Havaskor boksdan sport darajalari, razryadlar "YAgona butun Rossiya sport tasnifi"ga muvofik aniqlanadi. Bu tasnif, bizning mamlakatimizda sport darajalarini, razryadlarini berish talablari, shartlari va tartiblarini aniqlovchi jismoniy tarbiya va sport sohasida me'yoriy xujjat hisoblanadi.

Masalan, boks bo'yicha "Xalqaro toifadagi sport ustasi" darajasi Olimpiyada o'yinlarida 1-5 o'rinni; jaxon chempionatlarida 1-3 o'rinni; Osiyo,

jaxon Kubogida 1-3 o‘rinni; yoshlar o‘rtasida denyo birinchiligida 1-o‘rinni va hok., egallagan sportchilarga beriladi.

“O‘zbekiston soport ustasi” – 3ta jang o‘tkazish sharti bilan O‘zbekiston Kubogida 1-2 o‘rin; 3ta jang o‘tkazish sharti bilan O‘zbekiston chempionatida 1-2 o‘rinni egallagan sportchilarga beriladi.

Professional boksga kelsak, bu erda reyting, daraja Xalqaro professional boks tashkilotlari Ustaviga muvofiq aniqlanadi.

Bunday tavsif bokschining mansubligi kabi shuni ko‘rsatadiki, havaskor boksdagi sportchi u yoki bu sport tashkilotga tegishli sport klubi a‘zosi hisoblanadi.

Professional boksdagi bokschini menejer e‘tibodan chetda qoldirishi kerak bo‘lmagan yuridik tomondan mustaqil shaxs hisoblanadi. SHu bilan birga, ko‘p karra O‘zbekiston chempioni, professional bokschilar orasida o‘n to‘rt karra Jaxon chempioni A.Grigoryan ta’kidlaganidek, bokschida albatta kuchli jamoa – murabbiy, menejer, proumuter bo‘lishi kerak.

Havaskor boksdagi moliyalashtirish tizimi aralash tavsifga ega va davlat, jamiyat tashkilotlari, shu jumladan xususiy mablag‘larni jalb qilish bilan sport tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Professional boks, muayyan tavakkalchilik bilan bog‘liq bozor iqtisodiy tamoyillaridan tuzilgan to‘liq o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta’minlay olish darajasida. Yirik boks janglarini o‘tkazish promouter va menejerlardan bu tomosha foyda keltirishi uchun katta kuch va mehnat talab qiladi.

Masalan, Germaniya davlati “SHeika” nemis futbol klubi stadionida o‘tkazilgan chempionlik titullari himoya qilish bo‘yicha Vitaliy Klichko va polshalik Alberto Sosnovskiy orasidagi jangga 50 mingga yaqin tomoshabinlar keldilar (E.Saran, 2010). Odatda jaxon chempionati darajasi uchun boks janglari mingta kishini sig‘dira oladigan yirik zallarda o‘tkaziladi. YOki Floyd Mayvezer va SHeyn Mosli orasidagi jangga nazar solsak, K.Osipov (2010) yozganidek, “Har qalay asosiy yuqori reyting ko‘rsatkichlaridan biri bunday voqealarda biroz tebrandi. Las-Vegasda loyiha muvoffaqiyatini nafaqat foyda keltirishi bilan, balki pullik teletranslyasiyalar va chiptalar sotilish hamda shou fahriy mehmonlari

soniga qo‘ra ham baholanadi. Jangni tomosha qilishga buyuk og‘ir vazn toifasidagi bokschi Muxammad Ali, basketbol yulduzi Medjik Jonson, Koliforniya gubernatori arnold SHvarsenegger, Peris Xilton, Leonardo di Kaprio, Uill Smit, Mark Uolberg, Maykl Foks, Eva Longoriya, qo‘shiqchi Merayya Keri va albatta avvalgi absolyut jaxon chempioni Mayk Tayson ham tashrif buyurishdi”.

Va nihoyat, oxirgi tavsif – bu bokschilarni mukofotlash. Havaskor boksda, xususiy mablag‘ni hisobga olib ma’lum davlat va jamiyat sport tashkilotlari mukofotlash tizimlari mavjud.

Professional boksda mukofot miqdori shartnomalarda ko‘rsatiladi. Bokschi shu mablag‘lardan o‘z jamoasi ishiga to‘lovni amalga oshiradi. SHuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, olinadigan foyda juda katta, bundan tashqari sportchilar boshqa faoliyat turlarida (reklam va boshqalar) ham ishlab topadilar. Masalan, boks bo‘yicha jaxon chempioni Evander Xolifild 1997 yili 54,3 mln. dollar (53mln.doll – ish haqi; 1,3 mln. Doll – reklama uchun)ishlab topdi, boshqa mashxur bokschi Oskar De La Xoyya – 38 mln.doll (37 mln.doll – ish haqi; 1mln.doll – reklama) (S.I.Guskov, V.N.Platonov 2000).

Hulosa sifatida shuni aytish mumkinki, turli havaskor va professional boksning aniqlangan jixatlari, mernejer faoliyatida o‘z izini qoldiradi.

3.2. Jismoniy tarbiya oliy o‘quv yurtlari talabalarining professional boksda menejmentga nisbatan munosabatlarini o‘rganish natijalari

Ushbu bo‘limda, jismoniy tarbiya instituti “Boks, qilichbozlik va taekvondo nazariyasi va uslubiyati” kafedrası ihtisosligi bo‘yicha talabalar va magistrnlarning professional boksning turli jixatlariga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganib chiqish natijalari tahlil qilinadi. Bizning taxminimizcha, menejerlarni birinchi navbatda aynan shu kafedra bitiruvchilaridantayyorlash maqsadga muvofiq. Buni masalan, magistratura orqali bajarish mumkin. Lekin mavjud “Oliy va oliy ta’limdan keyingi kasbiy ta’lim to‘g‘risida”gi Federal Qonuniga muvofiq magistraturaga har qanday oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari qabul sinovlarini

topshirish sharti bilan o‘qishga qabul qilinishlari mumkin. Biroq, yuqorida bayon etilgan menejrlarni tayyorlashning boshqa imkoniyatlari ham mavjud.

Talabalar va magistrlar bilan o‘tkazilgan anketa so‘rovining maqsadi, ular professional boksning turli tomonlarida qanchalik mo‘ljal ola biladilar, qanchalik qo‘llab quvvatlaydilar yoki ko‘rsatilgan ta’lim yo‘nalishi yo‘qmi shularni o‘rgaib chiqish bo‘ldi. O‘tkazilgan tadqiqotlar, olingan natijalar, professional boksdagi menejmentni rivojlantirish bo‘yicha biz ifodalagan pedagogik shartlar qanchalik to‘g‘riligini ko‘rsatishi kerak edi.

Anketa so‘rovida O‘zDJTI “Boks, qilichbozlik va taekvondo” ixtisosligi 1, 2, 3 va 4-bosqich talabalari va 1,2 ta’lim yili magistrleri ishtirok etdilar.

1-jadvalda so‘rovda ishtirok etgan talabalar tavsifi keltirilgan.

Ishtirokchilarning tavsifi sifatli bo‘lishi uchun quyidagi savollar kiritildi: talaba qaysi bosqichda ta’lim olaypti, to‘ldirilayotgan vaqtdagi uning sport darajasi va sport faoliyati, u ringga chiqishni davom ettiryaptimi yoki ularni tugatganmi. Talabalarning anketa so‘rovi 2013 yil o‘tkazildi.

1-jadval

***Tadqiqotda ishtirok etgan talaba va magistrler
tavsifnomasi (%)***

Bosqich	Soni	1razryad	SUN	SU	XTSU	Ringda chiqayotgan	Yo‘q
Talabalar							
1	10	30	30	30	10	50	50
2	11	45,5	45,5	9	-	63,6	36,4
3	14	50	21,4	28,6	-	7,1	92,9
4	15	53,3	26,7	20	-	53,3	46,7
Magistrler							
1	4	30	70	-	-	20	20
2	6	50	37,5	-	12,5	12,5	87,5
Jami	60	44,1	36,8	16,2	2,9	39,7	60,3

Ishtirokchilar tanlamasiga ta'limning turli bosqichlari talabari va magistrarlari kirdi, bu esa o'z navbatida, asosiy yig'indi haqida ob'ektiv va representat tassavurga ega bo'lishiga imkon beradi. jadvaldan ko'rinib turganidek, talabalarining yarmidan ko'pi "Sport ustaligiga nomzod" va "Sport ustasi" darajasiga ega. Ishtirokchilarning 39,7% ringda jang o'tkazishni davom ettirmoqdalar. Keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, so'rovda ishtirok etgan talabalar va magistrlar, sport faoliyati nuqtaiy nazaridan ancha malakali va ma'lum darajada bilimlarga ega.

Ishtirokchilarga taklif qilingan anketani shartli uch qismga bo'lish mumkin:birinchi va ikkinchisi mazmunli va uchinchi – ishtirokchilar haqida ma'lumotlar. Anketaning birinchi qismi talabalarining professional boksning turli jixatlari haqidagi ma'lum bilimlarini aniqlashga yo'naltirilgan. Ikkinchi – professional boks menejerlarini tayyorlash ishida oliy ta'limni takomillashtirish haqida.

Ishtirokchilarni anketning birinchi qismi bo'yicha javoblari quyidagilarni aniqlashga imkon berdi. Anketaning birinchi savoli,so'ralganlar mamlakatimizda birinchi marotaba professional boks jangi o'tkazilgan sanato'g'risida qanchalik bilimga ega ekanligini aniqlashga qaratilgan.Biz birinchi bobda ta'kidlaganimizdek, bu sana vatanimiz professional boksi uchun juda muhim, chunki aynan shu sanadan bu sport turida sport faoliyati boshandi.

So'rov natijalari ko'rsatishicha (2-javdalga qarang), afsuski ko'pchilik ishtirokchilar mamlakatimizda o'tkazilgan birinchi professional boks jangi sanasini aniq aytib bera olmadilar. Bu jang o'tkazilgan yilni faqatgina uchta so'ralgan talabalar aniq aytib berdilar. Umuman anketa qatorlarida 1990 va 1991 yillar belgilangan, demak talabalar, zamonaviy O'zbekistonda professional boks qachon boshlanganligiga yaqinroq mo'ljal olganlar.

2-jadval***O'zbekistonda birinchi professional boks jangi o'tkazilgan sana haqida talaba va magistrnlarning axborotlanganlik darajasi (%)***

Anketa savollari	Talabalar, bosqich				Magistrlar, bosqich		Natijalar yig'indisi
	1	2	3	4	1	2	
To'g'ri javob	-	-	-	13,3	-	12,5	4,4
Noto'g'ri javob	100	100	100	86,7	100	87,5	95,6

Mamlakatimizda talabalar tanigan professional bokschilar haqida ularning qanchalik axborotga ega ekanliklarini ochib beruvchi anketaning keyingi savoli bo'ldi. Ishtrokchilarga ular biladigan professional bokschilardan uchtasini ismi, sharifini aytib berish taklif qilindi. Bunday bilimni, talabalarning professional boksga bo'lgan qiziqishlarini qayd etadigan ma'lum parametr kabi ko'rish mumkin.

3-jadval***Professional boks haqida talabalarining axborotlilik darajasi (%)***

Anketa savollari	Talabalar, bosqich				Magistrantlar, bosqich		Natijalari yigʻindisi
	1	2	3	4	1	2	
Oʻzbek bokschilari							
1-bokschi I.SH.	-	-	7,1	6,7	-	12,5	4,4
2-bokschi I.SH.	-	18,2	7,2	13,3	10	12,5	10,3
3-bokschi	100	81,8	85,7	80	90	75	85,3

I.SH.							
aytilmagan	-	-	-	-	-	-	-
Xorij bokschilari							
1-bokschi I.SH.	-	9,1	7,1	-	-	-	2,9
2-bokschi I.SH.	-	18,2	14,3	13,3	30	-	13,2
3-bokschi I.SH.	100	72,7	78,6	86,7	70	87,5	82,4
Aytilmagan-	-	-	-	-	-	12,5	1,5

3-jadval materiallari mazmunidan kelib chiqib shuni aytish kerakki, soʻralganlar koʻ yoki kam darajada professionalringda jang olib boadigan mamlakatimiz bokschilarini biladilar. Anketada bu savol, talabalar yozishi mumkin boʻlagn uchta bokschining ismi, sharifi bilan chegaralandi. Soʻng olingan maʼlumotlar ishda u yoki bu sportchini mashxurlik reyting kabi koʻrilimadi. YAna bir bor taʼkidlab oʻtish kerakki, bu holatda professional boksning aniq savoliga talabalarining maʼlum axborotlilik darajasigina qayd etildi.

Soʻrov natijalari shuni koʻrsatadiki, soʻralganlarning 85,3% oʻzlariga tanish boʻlgan mamlakatimiz professinal bokschilardan uchtasini, 10,3% - ikkitasi va 4,4% - bitta bokschi ismi sharifini aytib oʻtdilar. SHunday qilib, talabalar professional boksda ringa chiqqan bokschilar haqida yaxshi axborotlanganlar.

Jami ishtirokchilar tomonidan 6 ta bokschilarning ismi sharifi aytib oʻtildi. Soʻralgan talabalarining 69,1% Artur Grigoryan haqida ancha toʻliq maʼlumotga ega ekanliklarini bildirdilar, Ruslan chagaev – 42,6% hamda Muxammad Qodir Abdullaev va V.Tanganboevlar -33,8%dan. Ayti oʻtilgan vatanimiz professional bokschilarning birinchi oʻntaligiga A.Raximov -25%; M.Nabiev – 17,6%; A.Maxmudov – 11,8%; T.Toʻlaganov – 5,6%; kirdilar.

Bundan ashqari anketada professional spolrtchi boʻlmagan, lekin mashxur bokschilar ismi sharifi ham kiritilgan edi, masalan Rustam Saidov.

Ishtirokchilarga vatanimiz bokschilari bilan bir qatorda, professional ringda chiqayotgan xorij sportchilari ismi sharifi ham taklif qilindi. Talabalar bu savol yuzasidan yaxshi ma'lumotlarga ega ekanliklarini ko'rsatdilar. Ishtirokchilarning 82,4% uchta bokschi, 13,2% ikkita va 2,9% bitta bokschi ismi sharifini aytganlar. Bitta ishtirokchi bitta ham sportchi ismi sharifini aytib bera olmadi.

Xorij professional bokschilar ro'yxatini Maykl Tayson boshlab bergan. Uning ismi sharifini 58,8% ishtirokchilar aytib o'tganlar. Javoblar soni bo'yicha ikkinchi o'rinda Roy Jons – 45,6% va uchinchi afsonaviy Muxammad Ali – 26,5%.

Anketa ishtirokchilari jami 36 ta xorij professional bokschilar ismi shariflarini aytganlar. Ular orasida Oskar de la Xoyya va Evander Xolifild (ikkala bokschini 14,7% ishtirokchilar aytgan), Lenoks Lyuis, aka-uka Klyachkolar (13,2%dan), Floyd Meyvezer (5,9%). Ulardan tashqari anketalarda Jon Ruis, Kris Berd, Artur Abraxam va boshqalarning ham ismi shariflari keltirilgan.

Ularning yarmidan ko'pi bitta yoki ikkita ovoz olganlar. Xorij bokschilari tabiiyki ko'proq o'rin egallagan, chunki chet elda professional boks uzoq yillardan mavjud.

Ushbu savollarga olingan javoblar tahlilini yakunlab quyidagilarni hulosa qilish mumkin. Talabalar professional boks ringlarida jang olib borganlar va hozirgi kunda ham janglarni davom ettirayotgan bokschilar ismi shariflarini yaxshi biladilar. Ular o'zlarining tanlovini, bokschilar qanchalik ringda muvoffaqiyatli jang olib borganliklari yoki jang natijalariga ko'ra hamda ommaviy axborot vositalari ta'siri ostida, avvalo televideniya orqali ma'lumot olganliklari tufayli amalga oshirgan bo'lishlari mumkin degan taxminga keldik. Ammo bu jixat alohida o'rganishni talab qiladi.

Anketa so'rovi ishtirokchilari professional boks murabbiylarini qanchalik yaxshi bilishlarini aniqlash maqsadida, anketaga muvofiq savol kiritildi. Olingan ma'lumotlar ushbu sport sohasida talabalar murabbiylar korpusiga qanchalik qiziqish namoyon etganliklar, ularning professional eruditsiyasi haqida tassavur

hosil qilishga imkon berdi. anketa so‘rovnomasi natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni qayta ishlash 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

***Professional boks murabbiylari haqida talabalar va magistrantlar
axborotlilik darajasi (%)***

Aytilgan murabbiylar soni	Talabalar, bosqich				Magistrantlar bosqich		Jami natijalar
	1	2	3	4	1	2	
1-murabbiy I.SH.	4 0	9,1	21,4	2 0	20	25	22,1
2-murabbiy I.SH.	-	90,1	57,2	6 0	60	62,5	55,8
Aytilmagan	6 0	-	21,4	2 0	20	12,5	22,1

Javvalda taqdim etilgan ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, so‘ralgan talaba va magistrantlarning ko‘pchilik qismi bu sport turi mutaxassislarini biladilar. Ishtirokchilarning 55,8% professional boks murabbiylarini ikkitasini ismi shariflarini aytganlar, 22,1% -bitta murabbiy. 22,1% so‘ralgan talabalar murabbiylar ismi sharifini ayta olmaganlar.

Anketalarda vatanimiz va xorij mutaxassislar ham aytib o‘tilgan. Aytilgan murabbiylar orasida: T.Qilichev (20,6%); A.Rixsiev (13,2%); D.Xasanov (13,2%); V.Rasulov va SH.Abduraxmanov (11,8%dan). Talabalar tomonidan jami 28ta vatanimiz va xorij murabbiylari ismi shariflari aytildi. Albatta, xorij murabbiylari ko‘proq aytildi, ular orasida Frits Zdunek, Andjelo Dandi kabi mashxur mutaxassislar ham keltirilgan.

Anketaning ushbu savoliga javoblar, bizning nazarimizda, talabalarining professional bokschilarni tayyorlayotgan mutaxassislarni yaxshi bilishlarini

namoyish etdi. Bu esa o‘z navbatida, talabalarning bu sohaga bo‘lgan qiziqishlari kengligidan dalolat beradi.

YUqorida taqdim etilgan anketa savoliga talabalar tomonidan berilgan javoblar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarning professional boks sohasidagi bilimlari etarli darajada yaxshi. SHuning uchun talabalar professional boksning turli tomonlari haqidagi yangi ma’lumotlar qaysi manbaalardan olganliklarini ko‘rsatgan tadqiqot natijalari ma’lum qiziqish uyg‘otadi. Bu savolga talabalar tomonidan olingan javoblar va ularni qayta ishlash 5-jadvalda taqdim etilgan.

Avvalo, talabalar zarur ma’lumotlarni olish uchun bittadan ortiq manbaalardan foydalanishlariga e’tibor qaratish lozim. Ma’lumotlarni olish uchun eng etakchi manbaa bu Internet bo‘lib ishtirokchilarning 73,5% aynan shu zamonaviy axborot kanalidan foydalanadilar. So‘ralgan talabalarining uchtdan ortig‘i professional boks bo‘yicha ma’lumotlarni sport gazetalaridan (41,2%), boks kafedrasidan (38,2%) va o‘z dustlaridan (35,3%) olishlarini uqtiganlar.

5-jadval

Professional boks haqida yangi ma’lumotlarni olish uchun talabalarining axborot manbaalari (%)

Axborot manbaalari	Talabalar, bosqich				Magistrantlar, bosqich		Jami natijalar
	1	2	3	4	1	2	
Boks nazariyasi va uslubiyati kafedrası	10	72,7	14,3	46,7	20	75	38,2
Sport gazetaları	30	45,5	57,1	53,3	10	37,5	41,2
Sport jurnalları	10	27,3	21,4	20	20	25	20,6
Internet	90	81,8	64,3	53,3	80	87,5	73,5
Do‘stlar	20	54,5	50	33,3	20	25	35,3
Boshqalar	20	27,3	50	33,3	10	12,5	27,9

Anketada javoblar qatoriga qo‘yilmagan ma’lumot manbaalarini kiritish uchun ochiq qator qoldirildi. Bu qatorda ishtirokchilarning 27,9% televideniya kabi muhim axborot kanalini ham ko‘rsatganlar.

Aynan televideniya, aniqrog'i professional boks janglarini uning yordamida ko'rish, keyingi savol o'rtaq tashladi. Talabalarga ular qachon televideniya orqali oxirgi marta professional boks janglarini ko'rganlar va aynan qaysi janglarni ko'rsatish taklif qilindi. Olingan so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, ishtirokchilarning 58,8% televizor orqali professional boks janglarini qachon ko'rganliklarini aniq qo'rsatdilar. Qolgan so'ralgan talabalar yoki janglar translyasiya sanasini eslay olmaydilar, yoki savolga javob berishni istamadilar.

Ishtirokchilardan 67,6% janglarni kuzatganliklarini, kim g'olib bo'lganini biladilar. Ushbu savolga ishtirokchilarning javoblari ularni professional bokschilar janglari translyasiyasiga bo'lgan qiziqishlarini, bunga befarq emasliklarini va xotiralarida saqlanib qolganini bildirdi.

Va nihoyat, anketaning yana bir savoli, javobi professional boksning muhim jixatida "Boks nazariyasi va uslubiyati" kafedrası bo'yicha ixtisoslashgan talabalarining axborotliligi ko'rsatadi. Ishtirokchilarga havaskor va professional boks orasidagi ularga ma'lum bo'lgan farqlarni aytib berish taklif qilindi. Ishning uchinchi bobida bu farqlarni tashkiliy jixatlarini ko'rib chiqib, bu mavzuni etarlicha to'liq yoritib berdik. SHuning uchun shubu muammo bo'yicha talabalrining fikrlarini bilish juda qiziqish uyg'otdi.

Anketada havaskor va professional boks orasidagi uchta yoki undan ortiq faqni aytib berish taklif qilindi. 6-jadvalda tadqiqot natijalari keltirilgan. 6-jadval mazmunidan ko'rinib turibdiki, ikkitagina ishtirokchi bitta ham farqni aytib bera olmagan. Qolganlar bu savol bo'yicha ancha ma'lumotga ega ekanliklarini ko'rsatganlar.

Talaba va magistrantlar keltirgan havaskor va professional boks orasidagi asosiy farqlar (%)

Aytilgan farqlar soni	Talabalar, bosqich				Magistrantlar, bosqich		Jami natijalar
	1	2	3	4	1	2	
1-farq	-	-	7,1	6,7	-	-	2,9
2-farq	20	36,4	14,3	13,3	30	-	19,2
3-farq	80	63,7	71,5	80	60	100	75
Aytilmagan	-	-	7,1	-	10	-	2,9

Ishtirokchilarning 75% havaskor va professional boks orasidagi uchta farqni, 19,2% ikkita va 2,9% bitta farqni aytib berganlar.

Ishtirokchilarning tahlil qilingan javoblari jamlangandan keyin havaskor va professional boks orasidagi aytilgan farqlar beshta asosiy guruhga ajratildi:

1. Bokschilar ekipirovkasidagi farqlar (professional boksdagi shlem, qo‘lqoplardagi farqlar va boshqalar);
2. Janglarni o‘tkazish qoidalaridagi farqlar;
3. Xakamliqdagi farqlar;
4. Raundlar soni va uning davomiyligidagi farqlar;
5. Moliyaviy ta‘minotdagi farqlar.

SHuni ham ta‘kidlash kerakki, ko‘rib chiqilayotgan savolsha erkin javoblar to‘liq bo‘lmadi va farqlar mohiyatini deyarli ochib bermagan, faqat belgilab ketilgan halos. Vaholanki, bunday javoblarga bo‘yicha ham talabalar va magistrantlar havaskor boks professional boksdan farqlanishi haqida aniq tassavvurga ega ekanligini bilish mumkin.

Talabalar bokschilarning musobaqa faoliyatlaridagi farqlarni tavsiflab o‘z baholarida yakdil bo‘lganliklari e‘tiborni tortdi. Tashkiliy-boshqaruv, psixologik,

menejment, tibbiy va straxovaniya ta'minotlar va boshqalar javoblar doirasidan tashqarida qoldi.

SHuni ta'kidlab o'tish joizki, ishtirokchilarning bir qator javoblarida faqlarning bu jixatlari aytilgan edi. Bizning nazarimizda, talabalar belgilagan bu savollar bo'yicha farqlar bu erda maqsadga muvofiq ochib berilgan. Masalan, bitta jixatda "aniq raqibga nisbatan tayyorlanish" kabi farq keltirilgan. Haqiqatdan, professional bokschilar qoida bo'yicha o'zlarining raqiblarini oldindan biladilar va aynan u bilan jang o'tkazishga maqsadga yo'naltirilgan tayyorgarlik ko'radi.

Boshqa jixati, ishtirokchi bokschilarda, birinchi navbatda sorinli mukofotlar bilan bog'liqturlicha motivatsiya kabi farq mavjudligini ko'rsatgan. YAna bir talaba, professional boksning havaskor boksdan farqi uni shafqatsizligi va bokschilarni jang vaqtidagi tezkor harakatlaridan iborat deb hisoblaydi.

Ikkita ishtirokchi professional boks musobaqalari tomoshabopligiga e'tiborlarini qaratgan, boshqa ikkitasi esa bu musobaqalarni "shou" deb hisoblaydi. Va nihoyat, ishtirokchilar bir jixatda menejmentda turlicha farqlanishni ko'rdi.

SHunday qilib, talabalarning anketa so'rovnomasi birinchi qismi bo'yicha natijalarini yakunlab, quyidagicha xulosa qilish mumkin. Birinchidan, talabalar professional boks haqida umumiy tassavvurga egalar va unga bo'lgan qiziqishni namoyon eta oldilar. Ikkinchidan, ularga bu sport turining o'tgan va hozirgi dalillari tanish. Uchinchidan, talabalar havaskor va professional boksning mohiyatidagi farqlarni aniq tassavvur eta oladilar.

SHu bilan birga, nazarimizda talabalarga professional boks tizimlarida ancha chuqur va har tomonlama bilimlar kerak bo'ladi.

Bu erda, professional boks haqida aniqlangan talabalarini bilim darajalarini tushuntirib bera oladigan ayrim qo'shimchalarni kiritish mumkin. Birinchidan, "Boks nazariyasi va uslubiyati" mutaxassisligi fani doirasida professional boksga o'quv soatlari deyarli ajratilmagan. Ikkinchidan, oliy o'quv yurtlari uchun boks bo'yicha darsliklarni kontent-tahlilishuni ko'rsatadiki, professional boksga bag'ishlangan mavzuga juda kam e'tibor qaratilgan

Keltirilgan ma'lumotlar, talabalarni professional boks haqida o'quv materiallardan oladigan ma'lumotlari etarli emasligini ko'rsatadi. SHu maqsadda, talabalar o'quv jarayoniga professional boks bo'yicha kurs kiritishga qanday qarashlarini bilishga intildik. SHuning uchun anketada ishtirokchilarga "Boks nazariyasi va uslubiyati" kafedrasida professional boks haqida maxsus kurs kiritish zaruriyati to'g'rida savol taklif qilindi. Ushbu so'rov bo'yicha olingan natijalar 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

Professional boks maxsus kursi zaruriyati to'g'risidagi talabalar va magistrantlarning fikrlari (%)

Maxsus kurs zaruriyati	Talabalar, bosqich				Magistrantlar, bosqich		Jami natijalar
	1	2	3	4	1	2	
Zarur	-	54,5	78,6	60	70	62,5	55,9
Javob berishga qiynalyapman	30	36,4	21,4	33,3	30	25	29,4
Kerak emas	70	9,1	-	6,7	-	12,5	14,7

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ishtirokchilarning 55,9% bunday kurs kerak deb hisoblaydi. So'ralgan talabalarining uchasi javob berishga qiynalganlar – 29,4% va 14,7% so'ralganlar esa bunday maxsus kurs erak emas deb hisoblaydilar.

Katta bosqich talabalari maxsus kurs zarurligini ko'proq ishonsalar, magistrantlarsa aksincha javob berganliklari diqqatimizni o'ziga tortdi. Katta bosqichda maxsus kurs zarur deb hisoblovchi 4-bosqich talabalarining foizi biroz kamayadi. Umuman olganda so'ralganlarning ko'pchiligi ushbu kurs ularga zarur deb hisoblaydilar.

Talabalar va magistrantlar uchun ko'rib chiqilayotgan professional boks haqida maxsus kurs mutaxassisligi zaruriyatini asoslash quyidagi mulohazalardan quriladi. Professional boksning nazariy asoslari bilan tanishuvni, birinchidan,

bo'lajak mutaxassislarni kasbiy maxoratlarini kengaytirish, ikkinchidan, shu sport turida menejment faoliyatiga qo'yilgan birinchi qadam kabi ko'rish mumkin. Uchinchidan, agar hali ham ringga chiqayotgan talabalarining o'sha qismi o'z kuchini professional boksdan sinab ko'rmoqchi bo'lsa, unda maxsus kurs nazarda tutgan bilimlar ularga sportning bu sohasini yaxshiroq tassavvur qilishga va professional boks menejeri bilan muloqotda o'zlarini dadil his qilishlariga yordam beradi.

Bu faoliyatga chuqurlashtirilgan tayyorgarlik "Professional boks menejmenti" magistrlik ta'lim dasturi doirasida amalga oshirilishi mumkin.

SHuni ham ta'kidlab o'tish joizki, magistrantlarni tayyorlash har qanday yo'nalish bo'yicha magistraturaga nomzodlar tanloviga jiddiy yondoshuvni talab qiluvchi individual ish hisoblanadi. Bu bosqichda oliy ta'limning takomillashuvi sodir bo'layotgan hozirgi kunda bu faoliyat o'qituvchilarni talabalar orasida ma'lum tushuntirish ishlarini olib borishni talab qiladi. Avvalo magistrantlarni tayyorlash jarayoni nimalarni nazarda tutadi (talabalarini mustaqil ishga berilgan vaqtini hisobga olib), magistrant qanchalik o'quv materiallarni o'zlashtirishga tayyor kabi savollarni ochib berilishiga muxtoj.

Ushbu bo'limni yakunlab shuni aytish mumkinki, "boks" mutaxassisligi talabalari va magistrantlari orasida o'tkazilgan anketa so'rovlari professional boksdan menejmentni rivojlantirishning eng muhim pedagogik shartlaridan biri, aynan bilim va jismoniy tarbiya oliy o'quv yurtlari talabalari va magistrantlarining menejmentga bo'lgan munosabatlarini ko'rsatdi. Birinchidan, ushbu talabalar kontingenti shu faoliyat bilan shug'ullanish uchun talabgor bo'lishi ham mumkin. So'rovda ishtirok etgan talaba va magistrantlar professional boks bo'yicha ma'lum darajada bilimlarga ega ekanliklarini namoyon etdilar. Bir vaqtning o'zida, ular birinchi navbatda muvofiq o'quv-uslubiy majmua ishlab chiqishni talab qiluvchi professional boks bo'yicha maxsus kurs ishlab chiqish va tadbiq etishni zarur deb hisoblaydilar.

XULOSA

1. Ilmiy adabiyotlar, tadqiqot manbaalari, huquqiy xujjatlar ommaviy axborot vositalari materiallarini nazariy tahlili asosida shuni tasdiqlash mumkinki, professional boks xalqaro sport harakatida mashxurlikka erishgan, jamiyat hayotida ma'lum darajada o'z o'rnini egallagan ijtimoiy institut hisoblanadi.

Professional boksni zamonaviy rivojlanish bosqichi, sport musobaqalari tizimining o'ziga hosligi, keskin sport raqobati, yuqori tijorat natijalari, bokschilar janglari tomoshabinlar qiziqishiga yo'naltirilganligi, ommaviy axborot vositalarini, xususan televideniyaning jalb qilinganligi bilan tavsiflanadi.

2. Professional boksdagi xalqaro boks tashkilotlarini – WBA, WBC, WBO, IBF, WBF, milliy, mintaqalararo va boshqalarni o'z ichiga olgan barqaror boshqaruv tizimi vujudga kelgan. Boks tashkilotlarining ko'pligini, birinchi navbatda iqtisodiy va tarixiy sabablar hamda paydo bo'lgan an'analar bilan tushuntirish mumkin. Boshqaruv organlari tuzilmasi, ularning shakllanish tartibi, asosiy tashkiliy-boshqaruv faoliyatlarda maqsad ko'rsatmalari bir-biriga o'xshash. Boshqaruv tizimi, bokschilar jangini tashkil etishda asosiy o'rinni menejerlar va promoterlik kompaniyalari egallaydi.

3. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida, professional boksdagi menejmentni rivojlantirishdagi muhim pedagogik shartlar menejerlarni tayyorlash ekanligi aniqlandi. Talabalarini professional boksga bo'lgan munosabatlarini o'rganib chiqish bo'yicha boks mutaxassisligi talabalari bilan o'tkazilgan anketa so'rovlari quyidagilarni aniqlashga imkon berdi, ishtirokchilar professional boks haqida ma'lum darajada bilimlarga ega va ular bu sohada o'zlarining kasbiy saviyasini kengaytirish istagida, ishtirokchilarining - 44,1 % professional boks menejmenti sohasida bilim olishga tayyorliklarini ko'rsatdi.

4. Tadqiqot ishlarida professional boks menejerlarini tayyorlash bo'yicha turli hil tashkiliy-pedagogik shakllar(jismoniy tarbiya oliy o'quv yurtlarida bakalavriat, magistratura, mutaxassislar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, professional boks federatsiyalari bilan seminarlar) aniqlandi.

ANKETA

O‘zDJTI mutaxassislari sportning turli muammolarini o‘rganib chiqmoqdalar. Sizdan ushbu tadqiqotda ishtirok etishingizni so‘raymiz. Bizni professional boksga bo‘lgan Sizning munosabatingiz qiziqtiradi.

To‘ldirish bo‘ycha qo‘llanma: aniketa matnini o‘qing va tanlagan variantingizni **iltimos doiraga oling yoki javobini yozing.**

1. Bizning mamlakatimizda professional bokschilar jangi birinchi bor qaysi yili o‘tkazilgan?

..... yil

2. Iltimos, o‘zingiz taniydigan mashhur professional bokschilarni aytib o‘ting:

a) O‘zbekistonda

1.

2.

3.

b) Xorijda

1.

2.

3.

3. Iltimos, o‘ingizga tanish bo‘lgan professional boks murabbiylarini ayting:

a)

b)

4. Siz oxirgi marta TV orqali kuzatgan professional boks jangi:

a) Qachon

b) Kim g‘olib bo‘lgan

5. Siz professional boks haqida yangi ma‘lumotlarni qaysi manbaalardan olasiz (bir nechta manbalarni ko‘rsatish mumkin):

a) Boks NvaU kafedrasidan

- b) sport gazetalaridan
- v) sport jurnallaridan
- g) Internetdan
- d) do‘stlarimdan
- e) boshqa manbaalardan (qaysi)

6. Havaskor va professional boks orasidagi O‘zingiz bilgan farqlarni sanab o‘ting:

- A.....
- B
- V

7. Siz, boks NvaU kafedrasida professional boks bo‘yicha maxsus kurslar zarur deb hisoblaysizmi?

- a) ha, zarur;
- b) javob berishga qiynalyapman;
- v) yo‘q, zarur emas

iltimos o‘zingiz haqingizda ayrim ma’lumotlarni qoldiring:

Siz ta’lim olayotgan bosqich

Sizning sport tasnifingiz (kvalifikatsiya):

- a) 1-razryad;
- b) Sport ustaligiga nomzod;
- v) Sport ustasi;
- g) Xalqaro toifadagi sport ustasi

Siz hali ham ringda chiqishlarni davom ettiryapsizmi?

- a) ha, davom ettiryapman
- b) yo‘q

A D A B I Y O T L A R

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 1997 yil 29 avgustdan «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 1999 yil 27 maydagi «O'zbekiston Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 271-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 2000 yil yangi tahrirdagi «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» gi qonuni.
4. Ajitskiy K.YU. O vzaimosvyazi velichin anaerobnogo poroga i maksimalnogo potrebleniya kisloroda. //Nauchno-sportivno'y vestnik. 1990, №2, 34-36s.
5. Ashmarin B.A. Teoriya i metodika pedagogicheskix issledovaniy v fizicheskom vospitanii. – M.: Fizkultura i sport, 1978. – 223 s.
6. Baraev X. A., Gabdulov E. X. – Takticheskaya podgotovka boksera. m.p. g. Almaty 2003 g.
7. Bube X., SHtyubler X., Trogsh F. Testy v sportivnoy praktike - M.: Fizkultura i sport, 1968, 238s.
8. Vaysexovskiy S.M. Kniga trenera - M.: Fizkultura i sport: 1971, 312s.
9. Verxoshanskiy YU. V. s soavtorami – Taktika i modelnye xarakteristiki Boks. Ejegodnik.
10. Verxoshanskiy YU.V. Osnovy spetsialnoy fizicheskoy podgotovki sportsmenov. – M.: Fizkultura i sport, 1988. –
11. Volkov V.M. Vosstanovitelnye protsessy v sporte- M.: Fizkultura i sport, 1977, 143s.
12. Volkov N.I. Bioenergetika napryazhennoy myshechnoy deyatelnosti cheloveka i sposoby povysheniya rabotosposobnosti sportsmenov: Avtoref. diss.... dokt.ped.nauk v forme nauchn. doklada - M., 1990, 101s.
13. Gradoplov K. V. – Boks. Uchebnik dlya IFK «FiS» M. 1961 g.

14. Gradopolov K. V. – trenirovka boksera. Posobie dlya bokserov i trenirov M. Fis 1960 g.
15. Getke L. R. , Degtyarev I. P. – osnovnye puti silovoy podgotovki. Boks ejegodnik. M. Fis 1984 g.
16. Degtyarev I. P. – Boks. Uchebnik dlya IFK. M. FiS 1979 g.
17. Degtyarev I. P. – trenirovannost bokserov Kiev Zdorove 1985 g.
18. Djergoyan G. O. – Sovershenstvovanie taktiki bokserov 1go razryada i masterov sporta. Leksiya dlya studentov zaochnogo obucheniya. M. 1980 g.
19. Djeroyan G. O., Xudadov N. – predsorevnovatel'naya podgotovka bokserov. M. Fis 1971 g.
20. Djeroyan G. O. – Takticheskaya podgotovka boksera. M. FiS 1970 g.
21. Zasuxin A. F. , Koteshev V. E. – differensirovka napryajeniya v udarax. Boks. Ejegodnik. M. FiS 1983 g
22. Zasuxin A. F. – Metodika trenirovki silnogo udara i preduprezhdenie travm kisti. Boks. Ejegodnik. M. FiS 1983 g
23. Djergoyan G. O. – Sovershenstvovanie taktiki bokserov 1go razryada i masterov sporta. Leksiya dlya studentov zaochnogo obucheniya. M. 1980 g.
24. Djeroyan G. O., Xudadov N. – predsorevnovatel'naya podgotovka bokserov. M. Fis 1971 g.
25. Djeroyan G. O. – Takticheskaya podgotovka boksera. M. FiS 1970 g.
26. Kurguzov G. V. , Rusanov V. YA. – Sovershenstvovanie sistemy spetsialnoy fizicheskoy podgotovki kvalifitsirovannykh bokserov. Boks. Ejegodnik. M. FiS 1984 g.
27. Lavrov A. A. , Rodionov A. V. – Puti sovershenstvovanie podgotovki bokserov. Boks. Ejegodnik. M. FiS 1982 g.
28. Morozov G. – Uroki professionalnogo boksa. Moskva 1992 g.
29. Nikiforov YU. B. – Effektivnost trenirovki bokserov. M. FiS 1987g.
30. Nikiforov YU. B. , Xudadov N. A. – Prostyie sposoby otsenki nekotorykh kachestv bokserov v sorevnovaniyax. Boks. Ejegodnik. M. FiS 1984 g.

31. Nikiforov YU. B. – Osobennosti sovremennogo boksa i tendensii ego razvitiya. Boks. Ejegodnik. M. FiS 1984 g.
32. Nikiforov YU. B. – Effektivnost trenirovki bokserov. M. FiS 1987 g.
33. Nikiforov YU. B. , Xudadov N. A. – Простые способы отsenki некоторых kachestv bokserov v sorevnovaniyax. Boks. Ejegodnik. M. FiS 1984 g.
34. Romanov V. N. , Lavrov A. A. – Kombinatsionnyy boks. Boks. Ejegodnik M. FiS. 1983 g.
35. Savin G. I. – Uchyot trenirovochnykh nagruzok pri podgotovke k osnovnym sorevnovaniyam. Boks. Ejegodnik. M. FiS 1984 g.
36. Solovey B. A. – Uprajneniya s ottyagozheniyami kak sredstvo sovershenstvovaniya bystrotы yunых bokserov. Boks. Ejegodnik. M. FiS 1983 g.
37. Xudadov N. A. – V pomoshch treneru. Boks. Ejegodnik. M. FiS 1970 g.
38. Filimonov V. I. – pedagogicheskie osnovы obucheniya i sovershenstvovaniya M. «Insan» 2001 g.
39. Filimonov V.I., Vartanov G.M., Veber YU.B. Общие osnovы silovoy i funktsionalnoy podgotovki v bokse / Metod. rekom. – Groznyy, 1989g. – 30 s.
40. Filimonov V.I., YUsupov R.A. Kikboksing. Osnovy teorii i metodiki sportivnoy podgotovki: Uchebnoe posobie – Kazan. Izd-vo Kazanskogo Gos. Tex. Universiteta, 1998g. – 224s.
41. Filimonov V.I., Nigmedzyanov. Boks, kikboksing, rukopashnyy boy (podgotovka v kontaktnykh vidakh edinoborstv) – M.: INSAN. 1999 – 416 s.
42. Xudadov N. A. – V pomoshch treneru. Boks. Ejegodnik. M. FiS 1970g.